



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

**31 YANVAR
№24**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
10-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-10**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-10**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 60 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Saliyeva Madina Pirmanovna	
GAMING IN EDUCATION: USING GAMES AS A SUPPORT TOOL TO TEACH HISTORY.....	8
2. Turdiyeva Zilola Isroilovna	
TA'LIMDA TARBIYANING HAMJIHATLIGI.....	10
3. Abdusalomova Xadicha G'ayratjon qizi	
TA'LIM SOHASINI ISLOH QILISH YOXUD O'ZBEKISTON ERTANGI KUNI EGALARINING BILIM SIFATINI OSHIRISH – BUGUNGI KUNNING BOSH MAVZUSI.....	11
4. Adilova Nargiza Rasuljanovna	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING FANLARGA QIZIQISHINI ORTTIRISH MAQSADIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	13
5. Асанова Улдаулет Сагындиқовна	
ТАЪЛИМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	15
6. Berdiyeva Mastura Najimovna, Bekmirzayeva Qumri Abduraimovna	
BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINING SAMARALI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	17
7. Ibragimova Tursunoy Baxtiyarovna	
BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARINI TASHKIL QILISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	19
8. Mirzayeva Ziyodaxon Sobirovna, Dolimova Nigora Nu'manovna	
BOSHLANG'ICH SINF FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARNING O'ZIGA XOSLIGI.....	21
9. Murodova Nodira G'ayibsherovna, Madaminova Buxolcha Sultonovna	
BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH	22
10. Qarshiyeva Dilrabo Zokirjonova	
MULOQAT JARAYONIDA TILSHUNOSLIKNING AHAMIYATI	24
11. Qodirova Nasiba Qo'shmoqovna	
O'QUVCHINING MATEMATIK QOBILIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	25
12. Safarova Binafsha	
CMS DAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	26
13. Ilhomjon Teshaboyev Foziljonovich	
PSIXOLOGIYA HAQIDA TUSHUNCHА — FANNING PREDMETI, TARMOQLARI, VAZIFALARI	29
14. To'layeva Oydin Rizoyevna	
SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA RIVOYATLAR	30
15. Turapova E'tibor Abdumatalovna, Kuziboyeva Nargiza Xaydaraliyevna	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA IJTIMOIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSİYANING O'RNI	32
16. Xaitmuhamedova Gulbahor Toxirovna	
BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA FOYDALANILADIGAN DIDAKTIK O'YINLAR	34
17. Иномова Мафтуна Улугбековна	
ТАЪЛИМДА ГУРУХ БЎЛИБ ИШЛАШНИНГ ҚУЛАЙЛИК ВА ҚИЙИНЧИЛИК ТОМОНЛАРИ	36

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

18. Курбанова Одина Ахмадалиевна УМУМТАЛIM МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	37
19. Туробова Зубайда Тухтамуродовна БОШЛАНФИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	39
20. Farmonova Gulbahor Raxmonovna KO'RGAZMALILIK METODI VA UNDAN FOYDALANISH	41
21. Jumayeva Gulchiroy Utkirovna PEDAGOGIK TEKNOLOGIYADA O'QITISH METODLARI	42
22. Muxiddinova Gulmexra Nosirovna ADABIYOT DARSALARIDA «6X6X6» METODINI QO'LLASH	43
23. Ro'ziqulova Munisa Akmal qizi RUS TILI FANINI O'QITISH USULLARI	44
24. Sharipova Shaxnoza Muhiddinovna AKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	45
25. Yunusaliyeva Gulchehra Arabboevna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ERTAK JANRINI O'QITISH USULLARI	46
26. Зуева Арина Викторовна, Зуева Виктория Викторовна АРТ – ТЕРАПИЯ В РАБОТЕ С ДЕТЬМИ	48
27. Мамаджанова Светлана Валентиновна, Краснова Александра ПРОБЛЕМА И РЕШЕНИЕ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ К ОБУЧЕНИЮ	50
28. Рахимова Мадина Хасановна ЁШЛАРНИ ДЕСТРУКТИВ ГУРУХЛАР ТАЪСИРИДАН ҲИМОЯЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ	52
29. Гулрух Исакдаровна Самандарова, Фаррух Исакдарович Самандаров ЭТНОКУЛЬТУРНОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕВОЧЕК В СОВРЕМЕННЫХ БУХАРСКИХ СЕМЬЯХ	54
30. Туробов Жаҳонгир Равкат ўғли ТЕМИР ЙЎЛ СОҲАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИ ЎҚИТИШДАГИ МУАММОЛАРИ	58



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

GAMING IN EDUCATION: USING GAMES AS A SUPPORT TOOL TO TEACH HISTORY.

Saliyeva Madina Pirmanovna
Teacher of English of the school
№ 8 Chirchiq district.
madinaxon@bk.ru +9989094563242

Abstract : This paper discusses the implementation and use of gaming applications in teaching History, a subject which is mainly concerned about facts, by highlighting the role games have in education. The design of games such as word search, crossword, jigsaw puzzle, brain teasers and sliding puzzle using an open source tool called ProProfs is also discussed in this paper.

Keywords: Achievement, Educational technology, Gaming, Simulations

A game is a type of play where participants follow defined rules. (Houghton et al., 2013) discusses educational games as the utilization of games to support teaching and learning. Games can be used as a support tool to complement traditional teaching methods to improve the learning experience of the learners while also teaching other skills such as following rules, adaptation, problem solving, interaction, critical thinking skills, creativity, teamwork, and good sportsmanship. Learning should not feel dull and it should not only mean rote memorization where students learn and grasp concepts through repetition or cramming. Teachers can take advantage of the energy and innovative thinking that is provided by using technology in learning to improve student performance. 1.1 Aims i. To develop an enthusiastic learner. ii. To motivate and engage students. iii. Reduce monotonous learning methods. iv. To help students with focus, self-esteem, and memory. 1.2 Limitations Limited time to experiment. Using open source applications – Moodle is an open source application which offers a demo mode where teachers can edit and upload content. The demo period expires after 60 minutes and all content will be reset. ProProfs is also an open source application with restrictions which limit the application development process. 1.3 Overview of Games in Education Many different types of educational games are being applied and used in educational institutions, schools and homes. Using games in education mostly focuses on improving critical thinking skills while teaching a particular subject, by allowing students to think outside the box as they follow rules. There are other games that can be used which limit to improving knowledge in a specific subject and the most popular ones are math games. (Yue, & Zin, 2009) discussed that games like chess cannot be viewed as educational games as these improve logic skills, reasoning, and other traits

but they are not considered educational because they do not deliver content or relay curriculum material. Games that incorporate curriculum content or other educational material are referred to as educational games (Michel, 2016).

1.4 Roles of Games in Education (Boyle, 2011) posits that games play a vital role in building students' self-confidence. As educational tools, games are constructive as they liven up teaching methods which are normally considered dull and boring. 1.4.1 Advantages of using Games in Education i. Engage students The major role of applying technology is to engage students and to encourage students to participate. The use of games in education plays an important role in engaging students by encouraging a hands on approach.

Fig 12: Brain Teaser design (Behatia, 2016) Quiz type of questions will be used to discuss and revise the course at the end of the school term. This is a trivia type of game that will help students revise and focus on the key terms to help them remember what they have learnt. Students can also discuss the key terms at the bottom of the page and they can also ask for hints based on the



clues the teacher would have provided. The diagram below shows how the game will appear to the students after it has been designed. A how to play link gives the students a step by step guide on how to play the brain teaser. Students can also click on the Hint link to get a clue which would have been provided by the teacher during the design stage. The hint further explains the subject to help students to solve the question without looking at the answer

When students solve the sliding puzzle, marks will be awarded and students should be able to identify the symbol or person in the image and answer the discussion questions that will be posted below the image.

4.1.4 Jigsaw puzzle A jigsaw puzzle is a puzzle made of numerous pieces that are cut into different shapes and can be fit together to shape a picture. Developing a complete learner with visual, technology and knowledge literacy is the goal of using technology in education. Jigsaw puzzles are an ideal tool to teach students various skills while also teaching them the content. The diagram below shows the steps involved in designing the jigsaw puzzle. The teacher selects and uploads the image based on the topics discussed and gives a description for the discussion question which students need to discuss after they have solved the puzzle. Different difficulty levels can be selected based on how the students want to challenge themselves.

Conclusion. There are many opportunities to implement the concept of gaming in to education and there are many kinds of games that can be used in learning process which include problem solving, drill and practice, simulation, puzzle and tutorials based games. This paper has discussed the role of games in teaching History, by applying gaming theories to enable students to view the course in a different way so as to motivate and involve students to completion. Several learning theories such as social activism theory and cognitive information processing theory were applied to understand what literature says about the impact of games in education such that the game may be successfully integrated into the curriculum. The design of five educational games and the implementation process is also highlighted to make particular undertaking for accomplishing the educational games to ensure the objectives have been met as the effectiveness of the technology tool relies on how well it solves the desired instructional goals.

References

- 1 Aldrich, C. (2009). Virtual worlds, simulations, and games for education: A unifying view. *Innovate: Journal Of Online Education*, 5(5). Retrieved from <https://www.learntechlib.org/p/104221>
- 2 Aleson-Carbonell, M., & Guillén-Nieto, V. (2012). Serious games and learning effectiveness: The case of it's a deal!. *Computers & Education*, 58(1), 435-448. <http://dx.doi.org/10.1016/j.compedu.2011.07.015>
- 3.Behatia, S. (2016). Knowledge management software. Retrieved 23 May 2016, from <http://www.proprofs.com/>
- Ben-Ari, M. (1998). Constructivism in computer science education. *ACM SIGCSE Bulletin*, 30(1), 257-261. <http://dx.doi.org/10.1145/274790.274308>



TA'LIMDA TARBIYANING HAMJIHATLIGI

Turdiyeva Zilola Isroilovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
xalq ta'limi bo'limiga qarashli
42-umumiy o'rta ta'lim məktəb
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limga tarbiyani hamhihatlikda qanday olib borish kabi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limga tarbiya *Avval g'ishtni qiyshiq qo'yarkan me'mor.*

Yulduzga yetsada qiyshiqdir devor
(Mirzo Abduqodir Bedil)

Darhaqiqat, sharq adabiyotining shoiri Mirzo Abduqodir Bedil fikrlarining mazmun mohiyati nechog'lik teran ekanligini anglash mushkul emas. Zero, mening nazmimda bu jumlalar biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarga atalgandek go'yo. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mana shu birinchi g'ishtni qo'yuvchi me'mordir. Shunday ekan biz me'morlar hozirgi XXI asr Axborot texnologiya, innovatsion g'oyalar asrida yashayotgan ekanmiz, bu g'ishtni qiyshiq qo'yilishiga also haqqimiz yo'q. Horizgi boshlang'ich sinf o'qituvchisi zamon bilan hamnafas bo'lib, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida ta'limga bermog'i darkor. Bu borada esa ko'proq o'qib izlanmog'i, ijod qilmog'i kerak. Boshlang'ich ta'limga o'qituvchisi ta'limga hamda tarbiyani birgalikda shakllantirib boradi.

Tarbiya bor joyda, ta'limga kamol topadi. Bu ayniqsa biz boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinfga qadam qo'ygan har bir bola o'ta ishonuvchan, hamda samimiyligi bo'ladi. O'qituvchining har bir gapi bola uchun qonundir. Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, maktabga qadam qo'ygan bolalarga ta'limga jarayonining sifati uchun tarbiyaning ahamiyati kuchli. Negaki, bola psixologiyasiga nazar solsak, ayrim bolalar o'ta erka, tantiq, hamda jizzaki bo'ladi. Bunday bolalar barmoq bilan sanarli, albatta. Bu kabi bolalarni tarbiyalash uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'ta mahoratlari, serqirra bo'lmog'i lozim. Xo'sh bu kabi bolalardagi tantiqlik, erkaliq, o'jarlik hamda qo'rslik xislatlarini qanday yo'qotish mumkin? Bu borada sinfda rag'bat kartochkasi, medalchalarni tashkil etish ahamiyatga molikdir. Masalan: har bir sinf rahbar sinfdagi uchta, to'rtta bola bilan alohida isahlash kerak. Bu qanday bo'ladi? Bu har kun darsni boshlashdan oldin manashu aytib o'tilgan rag'bat medalchalarini o'quchilarga ko'rsatishdan bo'shlanadi. Masalan: bugun "Dilbek", "Farhod", "Said" o'rtasida sinfda musobaqa bo'ladi. Ya'ni bugun kun davomida o'zing odobi, yurish turishi bilan qaysi biringiz namunali bo'lsangiz sizni "Eng tartibli o'quvchisi" ko'krak nishoni yoki medali bilan taqdirlayman, va bu borada o'quvchini qiziqtirish, chiroli ko'zga ko'rindigan, did bilan tayyorlangan o'sha naminatsiyani ko'rsatib o'tiladi va doskaning burchagiga ilib qo'yiladi. Mana shu fikrlar bolaga qiziqish ug'otadi, u sergak tortadi. O'ziga nisbattan talabchan bo'la boshlaydi. Kun davomida o'z o'mida bolalarning yurish turishiga baho berib boring. Darslarning so'ngida uni yakunlab o'sha ko'krak nishonini o'z egalariga topshiring. Eng asosiy kulminatsion nuqta shu yerda bo'ladi. Yani o'qituvchi shu o'rinda bola ruhiyatiga ta'sir qiladigan fikrlarni aytib, uni maqol, ibratli so'zlar, tarbiya kitobidan jumlalar, hadisi sharifdan namunalar aytib bolaning qon-qoni, jon-joniga singib ketadigan fiklarni aytish joizki bola o'sha xususiyatlarni o'ziga kasb etsin. Unga taqdim etilgan "Eng tartibli o'quvchi", "Eng odobli bola" va hokazo shunday nishonlarni olib toqgan bola tarbiyadida katta o'zgarish yuz beradi. Lekin bu borada o'quvchi o'zining so'z san'atidan mohirona foydalanmog'i darkor. Bola uni taqib uyiga ravona bo'ladi va o'zini shunga munosib tutishga harakat qiladi. Ertasi yana xuddi shunday yo'l tutish va naminatsiyani ko'rishi, firlarni tarbiyaga molik qilib o'zgartiriting. Asta-asta manashunday bolalar sinfning ko'rki faxri, bo'ishga harakat qiladi. Serqirra tarbiya jarayonida esa ta'limga sifati yanada oshadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. ZIYOUZ.COM KUTUBXONASI 2013- yil 16- oktabr



TA'LIM SOHASINI ISLOH QILISH YOXUD O'ZBEKISTON ERTANGI KUNI EGALARINING BILIM SIFATINI OSHIRISH – BUGUNGI KUNNING BOSH MAVZUSI

Abdusalomova Xadicha G‘ayratjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika

Universiteti Texnologik ta'lif fakulteti tasviriy

san'at va muhandislik grafikasi fakulteti 1-bosqich talabasi

abdusalomovaxadicha18112002@gmail.com

+998913087789

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lif sohasida olib borilayotgan islohotlar, shuningdek, bu sohadagi yo'l qo'yilayotgan kamchilik va xatolar.

Kalit so'zlar: Ta'lif-tarbiya, yangicha o'qituv tizimi, taraqqiyot, o'zgarish, rivojlanish, kelajak

Farzand go'yo oq qog'ozga o'xshaydi. Uni yaxshi yozuvlar bilan to'ldirish esa ota-onada ustozning vazifasidir. Darhaqiqat, bugungi kunda ta'lif va tarbiya har bir davlatning eng dolzarb masalalaridan biridir. Yurtning kelajagi, uning ertangi kuni aynan mana shu ta'lif-tarbiyaga, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, yoshlar ta'lif- tarbiyasiga aloqadorligini hisobga oladigan bo'lsak, nega buni eng dolzarb masalalardan biri ekanligini anglab yetamiz.

Bu haqida fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyiniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalalaridir", - degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlar o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtida ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, mustaqillikning ilk yillardan boshlab yurtimizda ta'lif tizimini isloh etishga katta e'tibor qaratildi va bugungi kunga kelib sohada ma'lum yutuqlarga erishildi. Uzluksiz ta'lif tizimida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Qo'lga kiritilgan yutuqlar, shubhasiz, o'zimizniki, ammo globallashuv davrida jahonda ilm-fan, texnika va texnologiyalar sohasida shiddat bilan rivojlanayotganini also ko'zdan qochirib bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lif, ilm-fan oldiga yangi talablarni muntazam isloh etish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lif mazmunini boyitib borish, demak, bugungi kunning eng dolzarb talabi bo'lib qolaveradi. Bugun amaldagi ta'lif tizimimiz zamonaviy, rivojlangan davlatlarda kabi globallashuv talablariga javob bera olyapdimi? Ta'lif tizimida yechimini kutayotgan qanday muammolar bor? Kadrlar tayyorlash milliy dasturining o'quv jarayonining moddiy-texnik va axborot bazasi takomiliga yetkazilmaganligi, yuksak malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, hozirgi zamon talablariga mos o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar kamligi, fan, ta'lif va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro aloqaning zaifligi tizimdagagi kamchiliklardan hisoblandi.

Bugungi kunda o'quv muassasalarini bitirib chiqayotgan o'quvchi va talabalarda mustaqil fikr lash layoqati to'la rivojlangan, deb bo'lmaydi. Ta'lif muassasalari o'quv jarayonini tashkil etishda yetarlicha mustaqillikka ega emas. Tizimdagagi o'qituvchi-pedagoglar katta qismining bilim va kasbiy salohiyati pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali, bilimdon, "bozor" talablariga mos pedagog kadrlarga ehtiyoj katta.

Bunday holat məktəb muhitidan boshlanadi hamda kollej-litsey, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida ham davom etadi. Darsning mazmuniga emas, shakliga qaraladi: pedyuklamalar, plakatlar, ko'rgazmali qurollar... Ro'yxatni ancha davom ettirish mumkin. Xalqimizda bir naql bor: "Eskini yamaguncha esing ketadi". Haqiqatan ham shunday. Ishonmaysizmi? Unda oliy o'quv yurtlaridagi sessiya vaqtini kuzating (albatta, hamma OTM larda bir xil vaziyat, deb aytish fikridan yiroqmiz)

Binolar yangicha, ta'lif esa eskicha. Fikr lash, afsuski, XX asr o'rtalarida qanday bo'lsa shunday. Baholash mezoni bilim emas, miqdor va itoat. Nima oliy o'quv yurtlari sohaning yetuk mutaxassislarini emas, itoatgo'y xodimlarni tayyorlashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganmi? "Professor o'qituvchilar" ikki soat tinmay kitobdagisi tayyor ma'ruzani talabalarga aytib o'tirishadi, talaba esa mana shu ikki soat tinmay daftarini mana shu ma'ruza bilan qoralaydi. Bunday darsdan maqsad ilm berishmi yoki...



Ta'lim sifati haqida gap ketganda, negadir hamma hujjatbozliklar, korrupsiya, paxta va obodonlashtirishga o'qituvchilarni jalg qilinishini bosh aybdorlik deb hisoblaydilar. Aslida ham shundaymi? Agarda shularni bartaraf etsak muammo o'z yechimini topadimi? Bu savolga hech kim ishonch bilan javob bera olmaydi. Sababi bolalar maktab va kollej-litseylarga majburligidan borishadi. Talabalarning universitetga borishlaridan maqsadi esa faqat diplomli bo'lish. Mana shunday "o'quvchi-talabalar"da o'rganish uchun qiziqish yo'q. O'ylaymanki, ta'lim tizimida yuksak yutuqlarga, muvaffaqiyatlarga erishmoqchi bo'lsak, avvalo, barcha fuqarolarimizning qon-qoniga singib ketgan korrupsiya deb atalmish ulkan balonini ildizi bilan sug'urib tashlamog'imiz darkor. Bilaman, bu gaplar takror va takror aytib kelingan. Xo'sh, unda natija qani? Nima barcha aytilayotgan gaplar shunchaki og'izlarda qolib ketmoqdam? Sababi biz muammolarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablarni o'rganayotganimiz yo'q, balki oqibatlarini tahlil qilishga berilib ketgannamiz. Shunday ekan, bu muammolarni keltirib chiqarayotgan sabablarni tizimning boshqaruvi va tashkil etilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'lim sifatini oshirish uchun nima ishlar qilish mumkin? Ma'lumki, iqtisodiyotning ko'tarilishi ta'limga ham kesin turtki bo'ladi. Oxirgi yillardagi islohotlar bundan umid qilish uchun yaxshi asos beryapdi, lekin yangi sharoitlarga tezroq moslashish va yangi ilmlı avlodni tezroq vujudga keltirish zarur.

Ta'lim sohasidagi islohotlarni tezlik bilan amalga oshirish va bu borada yuqori natijalarga erishish oson ish emas. Negaki, mamlakatimiz ta'lim tizimi taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan muammolar ildiz otganiga yarim asrdan ko'proq vaqt o'tdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019- yilning 23-avgust kuni ta'limni rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufusini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektr yig'ilishida soha uchun qimmatli fikr-mulohazalarni bayon etdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimiz ta'lim tizimida izchil davom etttirilayotgan islohotlarning yuqori natijadorligini ta'minlash har birimizning bugungi faol sa'y-harakatimizga bog'liqligini unutmaylik. Barchamiz bugungi ijtimoiy, iqtisodiy va texnik taraqqiyot tufayli hayot ehtiyojiga aylanayotgan yangicha fikrlash, yangicha harakat, erkin ijod qilish va farovon yashash sari to'xtovsiz intilishimiz, ta'lim sohasining eng quyidan oliy bosqichigacha boshlangan islohotlarda faol ishtirok etishimiz lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda yoshlар masalasi, ularning ta'lim-tarbiya masalasi har doim davlat siyosati darajasiga ko'tarilib kelinmoqda. Sababi, yoshlар kelajak bunyodkori, jamiyatning asosiy kuchi. Yoshlik- kelajak va ezbilik sari intilish davri. Yoshlardan talab qilinadigan birgina vazifa esa mana shu davrni g'animat bilgan holda undan unumli foydalanishi, o'zini yurtining kelajagi uchun sababkorlaridan biri deb bilmog'i zarur. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda, "Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda buyuk O'zbekistonga aylantiramiz". Faqat biz yoshlар bunga ishonishimiz, o'zimizni mana shu yurtning chinakam poydevori va kelajagiga munosib tarzda tutishimiz lozim. Zero, biz o'tmishi boy, buguni go'zal, kelajagi esa buyuk va qudratli yurtning farzandlarimiz.

Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyatengimas kuch" 2008-yil 62-bet
2. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019- yilning 23-avgust kuni ta'limni rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufusini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektr yig'ilishidan



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING FANLARGA QIZIQISHINI ORTTIRISH MAQSADIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Adilova Nargiza Rasuldjanovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqlolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fanlarga qiziqishini orttirishga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ilmiy, ijodiy, ta’lim, rivojlantiruvchi, pedagogik texnologiya, izlanish, yangilik.

Hozirgi kunda har bir sohada yangilanish jarayoni ketayorgan bir paytda ta’limni isloh qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ta’lim sifatini oshirish maqsadida unga innovatsion texnologiyalarni joriy etish birlamchi qilib belgilandi. Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o‘rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy – ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta’lim mazmuniga talabchanligi, o‘qituvchining o‘z ustida ishlashga, malakasini oshirib borishiga va ongini yanada rivojlantirishiga, ta’lim tizimidagi barcha yangiliklardan xabardor bo‘lib borishi kerakligi asosiy motiv bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda pedagogika faniga, ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta’lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo‘llanib borilishi, ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirib yubordi desak, mubolog‘a bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo‘ladi. Buning uchun esa har bir o‘qituvchi bir necha yangicha ta’lim usullarini yaxshi bilishi lozim bo‘ladi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalniladi. O‘quvchilarini fanlarga qiziqtirishda va dars samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalinish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bunda yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘quvchi qiziqishini, uning qobiliyati va yosh xususiyatlarini hisobga olish darkor. O‘qituvchi shulurni hisobga olgan holda darsga o‘zgartirish kiritishi va interfaol usullardan foydalaniishi mumkin bo‘ladi. Ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quvchida o‘z iqtidorini namoyon qilishiga va fanga bo‘lgan munosabatini yanada yaxshilashga, unda yangilik yaratishga bo‘lgan qiziqishni yanada orttiradi.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniylar kuch sarflamay, qisqa vatq ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars moboynida ma’lum nazariy bilimlarni o‘quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malaka hosil qilish, ma’naviy sifatlarni shakllantirish, o‘quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o‘qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Bu borada o‘qituvchi darslarda foydalinishi mumkin bo‘lgan ayrim pedagogik vositalar: ta’kidlovchi savollar, bunda o‘quvchining bergan savoliga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O‘qituvchi muqobil, o‘quvchini faollikkha chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o‘xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarini rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o‘quvchilarda fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Hozir biz interfaol metod va usullarni sanab o‘tamiz: aqliy hujum, klaster, mustaqil xat, Venn diagrammasi, harakatli ma’ruza, o‘zaro ta’lim, muallifga savollar, “Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim”, insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, hamkorlikda izlanish, argumentlash, esse va boshqalar.

Insert – lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialidagi asosiy g‘oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo‘llaniladi.

O‘quvchilarini insert yordamida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o‘rganiladigan o‘quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O‘quvchilar har bir jumlanı o‘rganib chiqib,



maxsus jadvalga, muayyan belgilar asosida belgilash tavsija etiladi.

Agar jumlada berilgan ma'lumot shu kungacha o'zlashtirilgan bilimlariga mos kelsa, "Bilaman" – V, agar ma'lumotlar tushunarli va yangi bo'lsa, u holda "Ma'qullayman" +, agar ma'lumotlar o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarga mos kelmasa, u holda "O'rganish lozim" -, o'quvchilar o'quv materillarini o'zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda "Tushunmadim" ? belgisini qo'yadi.

Insertda foydalaniladigan maxsus jadval

T/R	Bilaman V	Ma'qullayman +	O'rganish lozim -	Tushunmadim ?
1				
2				
3				
4				

Ta'lif – tarbiya jarayonida insertdan foydalanish quyidagi talablarga amal qilinishi:

1. O'quvchilar kichik guruhlarga ajratilishi, lekin insert vositasida dastlab har bir o'quvchi yakka tartibda ishlashi va jadvalni to'ldirishi, guruh a'zolari belgilangan muddatda ishlashni yakunlaganlaridan so'ng, fikrlarni taqqoslashi;

2. O'quv bahsi orqali kichik guruh a'zolarining jadvaldagi belgilarinin bir xil bo'lishini ta'minlashi, ya'ni jadvaldagi keyingi ikki ustun bo'yicha bir xillikka erishishi;

3. O'qituvchi o'quv materiali asosida tuzilgan savol – topshiriqlari va kichik guruh a'zolarining jadvaldagi belgilari asosida o'quv bahsini tashkil etishi lozim.

"Zakovatli zukko" metodi – metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatni yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun rag'batlantiruvchi ballar belgilanadi. Bularning belgilanishi o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Metod o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli, ommaviy ishlashga birdek qo'llanilishi mumkin.

Skarabey – interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarda mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. Skarabey texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi.

Yuqorida ko'rib o'tgan metodlarimiz o'quvchilarning salohiyatini yuksaltirib, mantiqiy fikrashga undaydi va va ularni ma'naviy yetuk, barkamol shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. – T.: RBIMM, 2008.
- Ibragimov X. Pedagogika nazariyasi. – T.: 2008.



ТАЪЛИМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Асанова Улдаулет Сагындиқовна.

Ажиниёз номидаги Нукус
давлат педагогика институти

Аннотация: Ушбу мақолада замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш асосида Таълимда ахборот технологиялари фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: педагогик технология, таълимда ахборот технологиялар, инновацион технологиялар, таълим, ўргатувчи тизимлар.

Республикамизда иқтисодий ва ижтимоий соҳаларда олиб борилаётган изчил сиёсат натижасидаги ривожланиш таълим тизимида ҳам ўқитишнинг янги шаклларини жорий этишни тақоза этмоқда. Шу сабабли, ахборот ва инновацион технологиялар асосида таълим тизимини юқори сифат даражасида ташкил этиш хозирги куннинг долзарб муаммоларидан бири хисобланади.

Ушбу муоммани ҳал қилиш ахборотлашган жамиятга ўтишнинг муҳим масалаларидан биридир. Мамлакатимизнинг таълим тизимида олиб борилаётган ислоҳотлар асосий мақсади ҳам таълимни ахборотлаширишга, яъни ахборот-коммуникация технологияларини жорий этишга қаратилгандир. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан 2017 йил 7 февралда қабул қилинган Фармон 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида-умумий ўрта таълим сифатини тубдан ошириш, чет тиллар, информатика ҳамда математика, физика, кимё, биология каби бошқа муҳим ва талаб юқори бўлган фанларни чуқурлаштирилган тарзда ўрганиш; илмий-тадқиқот ва инновация фаолиятини рағбатлантириш, илмий ва инновация ютуқларини амалиётга жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш каби долзарб масалаларни ҳал қилишни мақсад қилиб қўйилган.

Олий таълим муассасаларида ўқитиладиган Таълимда ахборот технологиялари фани кўп қирраларини касб этиб, унинг аҳамияти дунёнинг замонавий шакллантирилишида, у киригаётган тушунчалар фундаменталлигига ўз хиссаларини кўшмоқда. Бу ҳолатлар кадрларнинг касбий тайёргарлигига ўз аксини топиши зарур ва муқаррарлигини кўрсатади.

Олий таълим муассасаларида Таълимда ахборот технологиялари фанини ўқитишда педагогик ва инновацион технологияларни қўллашнинг асосий мақсади бўлғуси ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ривожлантиришни таъминлаш, уларнинг педагогик тафаккурини кенгайтириш, ўз касбий соҳасида ўқитишда замонавий педагогик ва инновацион технологияларни қўллаш учун зарур бўладиган педагогик билим, кўникма ва малакалар тизими билан қуроллантиришдан иборатдир.

Таълимда ахборот технологиялари фанида инновацион технологияларини қўллашда фойдаланиладиган таълим методлари ва технологиялари сифатида модулли, муаммоли таълим, дидактик - ўйинли, ҳамкорликда ўқитиш ҳамда анъанавий-ноанъанавий таълим технологияларидан, интерфоал ўқитиш методларидан, ахборот коммуникация технологиялари воситаларидан, мультимедиали технологияларидан фойдаланиш ва визуал ўргатувчи тизимлар асосида ўқувчиларга таълим бериш хозирги куннинг долзарб масалаларидан хисобланади.

Визуал ўргатувчи тизимлар - бу ахборот коммуникация воситаларининг дастурий ва техникавий воситалари асосида аудио, видео, матн, графика ва анимация эффектлари асосида ўқув материалларини ўқувчиларга етказиб беришнинг мужассамланган холдаги кўринишидир.

Визуал ўргатувчи тизимлар асосида ўқувчиларни ўқитиш қуйидаги афзалликларга ега:

- бериләётган материалларни чуқурроқ ва мукаммалроқ ўзлаштириш имконияти бор;
- таълим олишнинг янги соҳалари билан яқиндан алоқа қилиш иштиёқи янада ортади;
- таълим олиш вақтининг қисқариш имкониятига еришиш;
- олинган билимлар киши хотирасида узоқ муддат сақланиб, керак бўлганда амалиётда қўллаш имкониятига еришилади.



Умуман олганда, Таълимда ахборот технологиялари фанида инновацион технологиялардан фойдаланиш талабаларга келгусида ўзининг касбий фаолиятида ўқувчиларга таълим бериш жараёнида кенг фойдаланиш ва бу орқали ўқувчиларни ўзининг фанига қизиқишини ўйготиши алоҳида ахамият касб етади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. М.Мамаражабов ва б. "Ахборот технологиялари" фанини каспий соҳаларга, йўналтириб ўқитиш методикаси. Методик қўлланма. -Т.: ТДПУ, 2012 й.
2. Голиш С.В. Таълимнинг фаол усуллари: мазмуни, танлаш ва амалга ошириш. Экспресс-кўлланма. – Т.: ЎМКХТ ривожлантириш институти, 2001.



BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINING SAMARALI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Berdiyeva Mastura Najimovna
Bekmirzayeva Qumri Abduraimovna
Sirdaryo viloyati Boyovut tumani
37-umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini

Annotatsiya: Maqolada bugungi kundagi Boshlang'ich talimning samarali tashkil qilish uchun Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati xususida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlari: Boshlang'ich ta'lism, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy metodlar, axborot-kommunikatsiyalar.

Bugungi kunda o'quv tarbiya jarayonini zamonaviy o'qitish usullaridan, pedagogika fanining ilg'or yutuqlaridan foydalaniib, shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'lism nazariyasini yaratish kabi vazifalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Boshlang'ich ta'lismning asosiy vazifalaridan biri – ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishdan iborat.

Ta'lism jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lism samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyatga joriy etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. O'quvchilarni fikr doirasini, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhim. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim, ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyati ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Bugungi yangilanish, ma'naviy yuksalish davrida har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bunday mas'uliyatlari va sharafli vazifalarni hal etishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni va xizmati kattadir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars jarayonida o'quvchilarning bir qolipga tushib qolmasligi uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bilan birga, multimediali ishlanmalardan samarali foydalangan holda o'qitishning o'yinli shakllari va mediatexnologiyalarini qo'llash imkonini egallagani bilan o'zining kompetentligini namoyon qila oladi. Boshlang'ich sinflarda bolalarning yoshini, bilim savyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson, vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlaridan foydalanish va darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-olam bilan bog'lab o'tilgan darslar, sayohat darslari ham bolalarni ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda ta'lism jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. O'qituvchi bunda bevosita va bilvosita ishtirok etib, ta'lism-tarbiya jarayonida boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shu bois ta'lism muassasalarida zamonaviy interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni katta.

Pedagogik texnologiya – ta'lism shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarini o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarini qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'i nazar texnologiyalar:

- *pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;*
- *o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;*
- *o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilim olishni ta'minlashi;*
- *o'quvchilarda mustaqil, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;*
- *o'quvchilarda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;*
- *pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarini ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.*



Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tattbiq eta olishi, ta'limning yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Hozirgi vaqtida ta'lim jarayonida o'qitishning zamонавиј metodlari keng qo'llanilmoqda. Bunday metodlarni qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar aqliy kamolotini rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, yangiliklarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashini, malakasini tinmasdan oshirib borishini, ongini yanada boyitishini, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishini talab qiladi. So'nggi yillarda ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, zamонавиј pedagogik –psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi, desak xato bo'lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarni qo'llab dars o'tilganda, guruhda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar qolmaydi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. O'quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga imkon yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ziyomuhamedov. B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. – T.: 2000
2. Ochilov. M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: 2003
3. Vaxitova N.M., Nesgorova V.M. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun qo'llanma. – T.: 2006



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARINI TASHKIL QILISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEKNOLOGIYALARI

Ibragimova Tursunoy Baxtiyarovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
26-sonli umumta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+998937521052

Annotatsiya: Maqolada darslarning samarali tashkil etishda Muammoli ta’lim texnologiyasi-ning ahamiyati hamda Boshlang‘ich ta’limda bu texnologiyaning qo‘llashga oid fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: Boshlang‘ich ta’lim, muammoli ta’lim texnologiyasi, ijodiy yondashish, O‘qish darslari

Hozirgi davrda ma’naviyati, intellekti va madaniy saviyasi yuksak shaxsni shakllantirishda nafaqat ta’lim mazmuni, balki qo‘llanilayotgan o‘qitish texnologiyalari ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quv jarayoni o‘qish va bilish faoliyatiga o‘zgartirishning imkoniyatlaridan biri muammoli o‘qitish texnologiyasini tatbiq etishdir.

Muammoli ta’lim bu - o‘quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo‘l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o‘qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta’lim darsda bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo‘lib, u o‘quvchi shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Muammoli ta’lim - o‘quvchilarning erkin fikrlashlariga, o‘zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta’sir etishdir. Bunda o‘quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg‘iz fikrlashi, jamoa bo‘lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko‘pchilik bo‘lib muhokama qilishi va to‘plangan fikrni bayon qila olishi kerak. Agar o‘qituvchi yangi mavzuni ta’sirli bayon qilib, ko‘rgazmalardan unumli foydalansa, bayon nihoyasida ayrim o‘quvchilar bilan ish olib borsa, o‘quv jarayoni samarali bo‘ldi yoki faol bo‘ldi, deb hisoblash mumkin.

Muammoli ta’lim o‘qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir daqiqasini hisobga olishni, ushbu vaqtida kerakli samara hosil bo‘lishi uchun o‘zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o‘qituvchining bo‘lajak o‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarligidir.

Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta’limning barcha ko‘rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta’limga tayyorgarlik ko‘rishda o‘qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o‘qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta. Ana shunday qiyinchiliklardan biri darsni muammoli tashkil qilish va muammoni o‘rganish usulini tanlashdadir. Chunki tanlangan usul faqat o‘quv materialini o‘zlashtirishni ta’minlabgina qolmay, balki o‘quvchilar faoliyatida mustaqillikni ham ta’minalashi zarur. *Ikkinci qiyinchilik esa muammoli ta’limni ko‘rinishini aniqlashda yuzaga keladi, ya’ni o‘qituvchi muammoni yechishga sinfdagi barcha o‘quvchilarni jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh o‘quvchilariga bajartiradimi?* Bu qiyinchilik o‘qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarni yetishmasligidan kelib chiqadi. *Uchinchi qiyinchilik esa darsda o‘quvchilarni qiziqishini uyg‘otish va uni uzuksiz rivojlantirib borishida ko‘rinadi.* Chunki o‘quvchilar diqqatini bir nuqtaga muntazam to‘plashga o‘qituvchining tajribasi va mahorati yetmasligi mumkin. Muammoli ta’lim haqidagi to‘plangan ma’lumotlarga asoslanib, shuni ta’kidlash lozimki, bu ta’lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 ko‘rinishga ega.

1. *Muammoli vaziyatni vujudga keltirish,*

2. *Muammoning qo‘yilishi,*

3. *Muammoning yechimini topish.*

Muammoli vaziyatni o‘quv mashg‘ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko‘p shallantirish o‘qituvchiga bog‘liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki u o‘quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o‘quvchilarning izlanishi-ga, fikrlashga o‘rgatadi. Muammoli vaziyatni yaratganda o‘qituvchi o‘quvchilar o‘z diqqatlarini nimalarga qaratishlari kerakligini aytishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ham muammoli tahlil usulidan foydalanish o‘quvchilarning asar yuzasidan chuqurroq mulohaza yurtishlariga yordam beradi. Muammoli tahlil badiiy asard-



agi muammoli masala va vaziyatlar asosida tashkil etiladi. Masalan, Hakim Nazirning "***Qodir bilan Sobir***" hikoyasi o'qilganda (4-sinf) "Bolalar o'rtasida qanday holatlarda do'stlik bo'ladi? Doim birga yuradigan bolalarni do'st deb bo'ladimi?" kabi savollar asosida muammoli vaziyat yaratilib, o'quvchilar fikr-mulohazalari asosida hal etiladi. Bu esa o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlashlariga zamin yaratadi.

pik asar g'oyasini to'g'ri belgilash asar matni ustida ishlashning muhim sharti hisoblanadi. Ammo muallifni o'quvchi to'g'ri tushunganligini qanday aniqlash mumkin? Bu muammo o'qish ta'limining bosh maqsadi bo'lib, unga asar sarlavhasi ustida diqqat bilan ishlash orqali javob topish mumkin. Sarlavha ustida ishlash badiiy asar g'oyasini to'g'ri tushunishga yo'l ochadi. Shuning uchun ham asar sarlavhasi ustida ishlashda ham muammoli ta'lim elementlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Jumladan, Farhod Musajonovning 3-sinf "**O'qish kitobi**" darsligidagi "**Yaxshilik**" hikoyasining birgina so'z – "Yaxshilik" deb nomlanishi undagi bosh qahramon Erkinding hatti-harakatlari o'zgarishi bilan bog'liqdir. Barcha o'zgarishlar asardagi Pirmat boboning birgina "*Yaxshilik qil, lekin maqtanib uni yuvib yuborma*" degan nasihatlari natijasida yuz beradi va u o'z hatti-harakatlarini o'ylab ko'rishga majbur bo'ladi.

Mirzakalon Ismoiliyning 3-sinf "**O'qish kitobi**"dagi "**Bobongiz xafa bo'lsa maylimi?**" hikoyasi ham o'zining sarlavhasi bilan asosiy g'oya bilan bevosita bog'langan. Bu g'oya boboning nevarasi sodir qilgan hatti-harakatlarni baholashida ifodalangan. Shuning uchun o'quvchilarga hikoya nima uchun bunday nomlanganini tushuntirishda, albatta, undagi asosiy muammoga mur-ojaat qilinadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham o'zlarining intellektual, jismoniy, ma'naviy imkoniyatlarini o'quv va amaliy muammolarni yechishda doimiy sinovdan o'tkazadilar. Bu esa kelajakda har qanday muammoli vaziyatni oson hal eta oladigan shaxsni shakllantirishga zamin hozirlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: 2008
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: -T.: 2004
3. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiyl asoslari (o'quv qo'llanma).-T.: 2006



BOSHLANG'ICH SINF FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Mirzayeva Ziyodaxon Sobirovna

Dolimova Nigora Nu'manovna

Marg'ilon shahar 28-umumi o'rta ta'lif maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: Maqolada Boshlang'ich sinf o'qituvchilarga ta'lif berishda innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati xususidida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: Boshlang'ich ta'lif, innovatsion metodlar, ta'lif, tarbiya.

Bugungi kun o'qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan bo'lib, ta'lif mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo'lib, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o'qituvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'otishlari, hurmat-ehtirom tuyg'ularini shakllantirib borishlari talab etiladi. Ta'lifda ijobjiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'lifiy va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi.

O'qituvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani boshlang'ich sinflarda amalga oshirish muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik o'quv predmeti sifatida fanlarni o'qitish metodikasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan puxta bilmog'i va tanish bo'lishlari lozim. O'qitish metodikasini yaxshi bilish boshlang'ich sinflar o'qituvchisiga bolalarni o'qitishni to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi. Metodika o'qituvchini fanlarni o'qitish nazariyasi bilan qurollantirib, o'qitish mahoratini egallab olishga imkoniyat yaratadi. O'quv materiallarining mazmunini ochib berishda xilmoxil o'qitish metodlaridan foydalanishga turlicha yondashish mumkin. Metodni tanlashda shuni nazarda tutish kerakki, bu tanish metodlar rivojlantiruvchi ta'limning vazifalarini ta'minlashi, o'qituvchilarning bilish qobiliyatini faollashtirishi, ayni bir paytning o'zida qayta axborot berishi, ya'ni muvaffaqiyatsizlik sababini aniqlash va o'z vaqtida yordamga kelish uchun o'qituvchilar tomonidan yangi bilimlarning qanday o'zlashtirilayotganligini tez va aniq ko'rsatib berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda barcha fanlarni o'qitishda quyidagi innovatsion metodlardan amalda keng foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Kognitiv metod. Bilim va bilsim ma'nosini anglatadi. Bu metod o'qituvchilarning jamoa tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etadi.

2. Eksperimental metod. Bu metod o'qituvchilarning jonli va shaxsiy tajriba orttirishiga yo'naltirilgan. Bunda darsda olingan bilim asosida mashq bajarish va misol yechish ko'nikmasini hoslil qiladi.

3. Rolli o'yinlar, modellashtirish metodi. Bu metod hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma'lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko'rishga yo'naltirilgan. Bu usullar jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog'liq, ammo muhokama rolli o'yin tahlili asosida olib boriladi.

4. Amaliyot orqali o'qitish, bevosita faoliyat-o'qituvchilar guruhi ishini tashkil etish, ko'pincha aniq, real, amaliy bilan bog'liq: aniq qaror qabul qilish bo'yicha muhokama, faoliyatning real rejasini ishlab chiqish, real, mojaroli manfaatlarni muvofiqlashtirish.

Fanlarni o'qitish metodikasi matabda barcha fanlarni o'qitishga oid masalalarni: o'qitishning g'oyaviy yo'nalgaligini, o'qitishning mazmuni bilan metodlarning birligini, o'quv ishlarining shakllari o'rtasidagi izchillikni va barcha ta'lif elementlarining yaxlitligini, hamda rivojlanishini ko'rib chiqadi

Xulosa qilib aytganimizda, bugungi kun o'qituvchisining reytingi o'qituvchilarning dars jarayonidagi faolligi, bilim va malakalarni egallah darajasi bilan belgilanadi. Buning uchun esa o'qituvchining darsga bo'lgan qiziqishini orttirish zarur. Yuqorida sanab o'tilgan innovatsion metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam berish bilan birga, bolalarda ilm-fanga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga olib keladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Ziyomuhamedov. B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. – T.: 2000
2. Ochilov. M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: 2003
3. Vaxitova N.M., Nesgorova V.M. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun qo'llanma. – T.: 2006



BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

Murodova Nodira G‘ayibsherovna
Madaminova Buxolcha Sultonovna
Namangan viloyati Mingbuloq tumani
12-umumta’lim maktabi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf, O‘qish darsliklarida istiqlol va vatan tushunchasining talqini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlari: boshlang‘ich sinf, o‘qish kitobi, she’r, vatanparvarlik, buyuk zotlar.

Mamlakatimizda ta’lim tizimi keskin yangilanib, umumiy o‘rtalim makteblari uchun yangi avlod darsliklarini yaratish jadal davom etmoqda. Mustaqillik davrida boshlang‘ich ta’limning hamma sinflari uchun dastur va darsliklar yaratilib, har yili to‘ldirilib, qayta nashr etib borilayotgani tahsinga sazovor. Hozirgi darsliklar tuzilish va mazmuniga ko‘ra mavjud ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni o‘ziga singdirib olganligi ham e’tirofga loyiq hodisa. Jumladan, O‘qish kitobi darsliklari ham to‘ldirilgan yangi nashrlarida tobora dolzarb mavzularni, bo‘limlarni qamrab olmoqda. Bu jihat 1-sinf O‘qish kitobida alohida ko‘zga tashlanadi. Mustaqillikdan so‘ng mamlakatimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, milliy qadriyatlarimizning tiklanishi mazkur darslikdan ham keng o‘rin olmoqda. Endilikda shu narsa tobora yaqqolroq anglashilmoqdaki, boshlang‘ich sinf darsliklari kelajagimiz ravnaqiga ma’naviy ko‘makdoshdir. 1-sinf O‘qish kitobidagi yetakchi bo‘limlar va mavzularda ham shu ma’noda yangi zamon, yangicha hayot shodliklari, xalqimizning haqiqiy quvonchi, millatimiz o‘tmishi va bugunidan faxrlanish tuyg‘usi o‘z ifodasini topmoqda.

Avvalo, bo‘limda chinakam madaniyatimiz, tariximizdagi buyuk shaxslar – Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzo kabi mutafakkirlar to‘g‘risida she’rlar o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, Vatan, inson qadr-qimmati va xotira, ona-yurt haqidagi tushunchalar mustaqillik g‘oyasiga hamohang. Masalan: darslikning ilk sabog‘i Po‘lat Mo‘minning “**Vatan-bu...**” she’ri bilan boshlanadi. Shoiring mazkur she’rida Vatanning nima ekanligi soda va eng muhim g‘oya orqali ifodalanadi. Shoiring Vatanni yurakka o‘xshatadi. Yurakka Vatanning kerakligini, ularning har ikkalasi bir-biriga kerakligi ta’kidlanadi. Chindan ham jippi 1-sinf o‘quvchisi hali Vatanning va yurakning o‘xshatilish sababini anglab yetmaydi. Ammo yurakning inson a‘zosi uchun eng muhimligini tushunadi. Vatan ham har bir kishiga yurakdek kerakligi shu kabi she’rlar orqali anglab boriladi. P.Mo‘min she’rning xulosaviy qismini yanada lo‘nda xulosalaydi:

*Aslida Vatan bu –
Tug‘ilgan joyim,
Birinchi qadamim
Yetgan qo‘rg‘onim.*

Istiqlolgacha bo‘lgan davr she’riyatida Vatanning tug‘ilgan joy, birinchi qadami yetgan qo‘rg‘on bilan belgilanishi ko‘zga tashlanmagan. Aksincha bunday fikr yurituvchilar millatchi tamg‘asi ostida qatag‘on qilingan. Nafaqat bolalar, balki kattalarning ham umrida bir bor ko‘rmagan poytaxt shaharni, markazni Vatan deb aytishardi. Shu sababli, Vatan tuyg‘usini teran anglab yetish dushvor bo‘lgan. Endilikda 1-sinf o‘quvchisi o‘zi tug‘ilgan uyi, tarbiya olgan bog‘chasi, qadam qo‘yan maktabini o‘z Vatani deb biladi, ulg‘aygani sari bu tushuncha O‘zbekiston bilan baravar kengayib, yaxlit tasavvur paydo bo‘la boradi. O‘quvchi ham Vatan deganda nimani tushunasiz, – degan savolga aniq javob bera oladi. Darslikdagи “**Yurt qalqonlari**” she’ri ham bolalar shoiri Dilshod Rajab qalamiga mansub. Shoiring istiqlol davri ijodkorli ekanligi yuqoridagi faslda ko‘rilgan edi. Binobarin, uning she’ri ham shu davr ruhiyati, mavzu va g‘oyasiga ega:

*O‘zbekiston – hur Vatan,
Baxtimiz ayvonidir.
Armiyamiz mustahkam,
Ona yurt qalqonidir.*

Bu she’rda esa O‘zbekistonning hur va ozod-istiqlolga erishgani, shu munosabat bilan uning o‘z armiyasi, askarlari borligi madh etilgan jippi o‘quvchilar harbiy xizmat mardlarning ishi



ekanligini, jasur askar akalarining ona yurt uchun qalqon-qo‘riqchiligin tushunib boradilar. Mustaqil yurtning kelajagi, tinchligida shu kasb egalarining xizmati kattaligi ayonlashadi. Bu esa, o‘z navbatida, kichkintoy yigitlarning ko‘ksida g‘urur paydo qilib, harbiy bo‘lishlarida ishtiyoy uyg‘otadi. 1-sinf O‘qish kitobidagi “**Ota rozi - Vatan rozi**” (Eson Rahimov) she’rida ham vatanparvarlik ulug‘langan bo‘lib, istiqlol davri bolalar she’riyatining namunasi bo‘la oladi. Bu mavzu 2-sinf O‘qish kitobida Muqim Qodirning “**Biz Vatanning ertasi**” deb nomlangan she’ri ham qay jihatdandir shunday g‘oyani singdirishga xizmat qiladi. Zero, she’rdagi:

*Temurning avlodimiz,
To `maris surriyotimiz,
Tinchlikdir murodimiz,
Biz–Vatanning ertasi.*

satrлari fikrimizga asos bo‘la oladi.

Tarixiy shaxslar mavzusida bitilgan she’rlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun serqirra ma’no kasb etibgina qolmay, tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Negaki, har bir inson yoshligida pokiza orzu-umidlar bilan yashaydi, xalqiga, Vataniga foydasi tegadigan kishi bo‘lib yetishishini o‘ylaydi. Bu jarayon buyuk mutafakkirlar asarlarida hayotiy misollar, afsona va rivoyatlar asosida ko‘rsatib berilgani shundan. Shu ma’noda, ezgulik, komillik sari intilish odamzodning azaliy orzusi ekanligi ayon bo‘ladi. Milliy istiqlol xalqqa ana shunday an’analarni davom ettirish yo‘lini ochdi. Va bu g‘oyani o‘quvchilarga singdirishda yuqorida zikr etilgan matn va hikoyalar vosita bo‘lib xizmat qilishiga shubha yo‘q.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. T.: 2015.
2. G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O‘qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. — T.: 2012.
3. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. — T.: 2016



MULOQAT JARAYONIDA TILSHUNOSLIKNING AHAMIYATI

Qarshiyeva Dilrabo Zokirjonova

Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani
16-maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslik nazariyasi va inson muloqotining bir-biri bilan bog'liqligi, farqli jihatlari haqida fikrlar keltirilgan. Tilshunoslik fanining boshqa yo'naliishlar bilan hamkorligi, tilshunoslikning insoniyat tarixida qanday ahimiyat kasb etishi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Fonologiya, pragmatika, psixolingvistika, diaxronik tilshunoslik, nazariy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, tanqidiy disursiy tahlil

O'zimiz va atrofimizdagi dunyo haqida ko'proq bilish uchun olib boriladigan yo'naliishlardan biri sifatida qiziqarli bo'lishiga qaramay, tilshunoslikni o'rganish hayotdagi muammolarni hal qilishda ham juda muhimdir. Amaliy tilshunoslar tillarini o'qitish, nutq terapiyasi va tarjima kabi sohalarga o'z qarashlarini olib kirishadi. Tilshunoslik odamlar qanday qilib tildan foydalanishni tushuntirishni emas, balki til tizimining ishlashini tavsiflash va modelni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Ushbu jihatlar birgalikda tilning grammatikasini tashkil qiladi. Kitobdag'i qoidalar ro'yxati emas, balki aloqa uchun zarur bo'lgan qismlarni. Tilshunoslik bu so'zlar va iboralarini o'z ichiga olgan birlıklarni jummalarga qanday birlashtirishini o'rganishdir. **Masalan: Nega Nasiba baliqni eydi. Nasiba baliqni eydi?** Sintaksis bo'yicha olimlar so'zlarning qanday buyruqlari qonuniy jumlalar yaratishini, jumlalar ichida qanday qilib aniqlangan tartibni yaratishadi. **Masalan:** faol gaplar (Jahongir to'pni tepdi) va passiv gaplar (To'pni Jahongir tegpan). **Fonologiya va tilshunoslik.** Odatda nutqni emas, balki imo-ishora tilini ham o'rganishni o'z ichiga oladi. Ovoz yoki imo-ishora orqali tilni ifodalash uchun ishlatiladigan bir xil jihat ikkalasining asosi sifatida qaraladi. Imo-ishora tilidagi tadqiqotlar, shuningdek, o'z ona tilini biluvchi tilshunoslarning tushunchalari uchun ham foydali. Fonologiyada bo'g'inxarning tuzilishi, intonatsiyasi, ohanglari va imo-ishora, qo'l harakatlari bilan tilni ifodalash uchun dinamiklardan foydalanadigan grammatik tizimni o'rganishdir. Masalan: **mushuk** so'zini {m} {u} {sh} {u} {k} segmentlarini tartibga soluvchi har birini fonema sifatida bo'laklarga ajratadi. Tovushni hosil qilish, harfni shakllantirishning yoki imo – ishora harakatlarning cheksiz ko'p usullari mayjud bo'lsada, fonologlar ushbu guruhni qanday qilib mavhum toifalarga ajratish bilan qiziqishadi. **Masalan:** chet tillarida bunga ko'plab misollar keltirish mumkin ingliz, nemis, fransuz, xitoy va boshqa tillarda uchratish mumkin. Ingliz tilida wh [v], fransuz tilida esa C [seh], arab tilida ﻭ [sod] o'zbek tilida sh [sh], ng [ng] bizda bu harf birikmalari hisoblanadi. Fonetika nutqning tovush tomoniga e'tiborni qaratadi. Fonetika nutqni idrok etish (miya tovushlarni qanday aniqlayotgani), akustika (tovushlarning jismoniy fazilatlari havo orqali harakatlanish) va artikulyatsiyani (o'pka, til, lablar va boshqa artikulyatorlarning harakatlari orqali ovoz ishlab chiqarish) qamrab oladi. Tilshunoslik ko'plab sohalarni qamrab olgan va birlashtirgan insonning tabiiy tilining asosiy xususiyatlarini, shaxslarning rivojlanishini, fikrlash va muloqotda foydalanishni, miyani hayotga tatbiq etishni, genetik asoslarni va evolyutsion kelib chiqishni o'rganadi. Muloqot asoslari umuman o'zgarmaydi. Aksincha, til lug'atiga har kuni yangi so'zlar qo'shiladi, shuning uchun u har kuni o'zgarib turadi. Buning natijasida tilshunoslik faniga yangi mavzular, bo'limlar qo'shiladi. Tilshunoslik qoidalari o'zgarmas emas, ularning turli xil tomonlari yillar o'tgan sari yangidan kashf qilinaveradi. Xulosa: Yuqorida tushuntirish bilan, muloqot jarayoni tildan ko'ra kengroq doiraga ega ekanligi aniq, chunki birinchisi ikkinchisini qamrab oladi. Til - bu muloqotning mohiyati, ularsiz u mavjud bo'lmaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik (OTM uchun darslik). –Toshkent, 2010
2. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduaizizov A.A. Umumiyl tilshunoslik. -T., 1979.
3. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent: O'qituvchi, 1992.



O'QUVCHINING MATEMATIK QOBILIYATINI OSHIRISH YO'LLARI

Qodirova Nasiba Qo'shmoqovna,

Furqat tumani, 11- maktabning matematika fani o'qituvchisi

Telefon: +998911518269

nasibaxonqodirova47@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematik qobiliyatni oshirish haqidagi fikrlar aytib o'tilgan. Matematik tafakkurini shakllantirish haqida yaxshi tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: passiv metod, taqqoslash, induksiya, deduksiya, mantiqiy tafakkur, fikrlash

O'quvchining faol o'quv faoliyatini uyshtirishda o'qituvchining roli, o'qitishning passiv metodlariga nisbatan, ya'ni o'quvchining vazifasi faqat eshitish, esda saqlab qolish va takrorlashdan iborat bo'lgan metodga nisbatan beqiyos ortadi. Shubhasizki, bunda bunday darslarni o'tkazishning qiyinligi unga tayyorgarlikning murakkabligi ortadi. Lekin, buning evaziga o'qituvchi o'quvchilarining puxta, oydin anglashilgan bilim olishiga, to'la qonli aqliy rivijlanishiga har qanday ijodiy ixtisosni egallashiga yaxshi tayyorlanishiga erishadi.

O'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish haqida gapirganda, o'qituvchining qaydaydir qo'shimcha ishi ko'zda tutiladi deb qarash yaramaydi. Bunda gap materialini o'zgartirish munosabati bilan o'quvchilarning ilmiy tafakkurining shakllanishi haqida boradi. Xuddi dastur materialini samarali o'rganish maqsadida o'quvchilarda tafakkurning ba'zi umumiylar xususiyatlari : analiz, sintez taqqoslash, umumlashtirishlar induksiya, deduksiya va o'xshashlik to'g'risida, bog'lanishlar va nisbatlar, o'xshatishlar: klassifikatsiyaning kelib chiqishi va tushunchalarni sistemalashtirish haqidagi tasavvurlarni shakllantirish kerak. Shu munosabat bilan o'quvchilarning faolligi ham shundaygina darslikning matnni qaytadan o'qib chiqishga qaratilmasdan, balki matematik haqiqatni hosil qilish metodlariga , yechishning turli yo'llarini taqqoslashga , nazariyaning mumkin bo'lgan tatbiqlarini topishga va boshqalarga qaratilishi kerak .

Matematikaning mantiqiy tafakkur rivojlanishi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi qadim zamondardanoq ma'lum edi. Tafakkurning matematik stili haqida, har qanday ixtisosdagi mutaxassislarining uni bilishi kerakligi haqida gapirar ekanmiz, bunda mantiqiy tafakkurning yuqori sifatlari yuqori, qisqalik, tartiblanganlik hatto kichkina bo'lsa ham soxtalikka yo'l qo'ymaslik to'la dalil keltirish va hokazolarni tushunamiz Ko'p kishilar bu qobiliyatlarni ko'pchiligi til, adabiyot, tarixni o'rganish jarayonida ham rivojlanadi deyishlari mumkin. Har bir fan o'quvchilarning aqliy kuchini rivojlanirishi kerak .Lekin, mantiqiy tafakkurning shakllanishda matematika so'zsiz birinchi darajali ahamiyatiga egadir, chunki u soxta da'volar bilan uzbek kelisha olmaydi, u so'zla fikrlashni haqiqatga o'xshatib ko'rsatishdan ko'ra rad qilishni afzal ko'radigan noyob fanlardan biridir ana shuning uchun ham matematika o'qituvchisining jamiyat oldida mas'uliyati juda kattadir ahir tafakkur stil ko'p jihatdan o'qitish stili bog'liqdir.

Amaliy jihatdan o'quvchilar hodisaning muhim bo'limgan xususiyatlarni ko'rish uchun bu hodisalarini turli tomonidan (masalan uchburchakning turli vaziyatlardagi chizmasi) ko'rsatish bo'ladi. Metodika turlantirish yo'li masalalarga nisbatan allaqachon tavsiya etgan; bir yoki bir necha so'zlarning o'zgarishi (shuncha " kichik"- " katta" ni), bir necha so'z qo'shish yoki, aksincha, shartlardan bitasini kamaytirib aytish va hokazo.

Aniqroq qilib aytganda, matematik qobiliyat va tafakkur matematikadan muktab kursi darsining butun bo'linmalarini o'rganish davomida rivojlanirishi kerak bu xol matematik haqida erishish u, ular bilan bog'liq bo'lgan izlanishlarga, sinashlar xatolar, aqliy mehnat usullarini anglashga alohida e'tibor berishga majbur qildi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. R.A.Habib. O'quvchilarni matematik tafakkurini shakllantirish . O'qituvchi nashriyoti . Toshkent -1980 - yil. 113-bet.



CMS DAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.

Safarova Binafsha.

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
6-umumiy o'rta ta'lim maktabi
informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. So'nggi yillarda internet omma hayotiga shunchalik jadal ta'sir ko'rsatmoqdaki, bu bilan u nafaqat inson hayotining muhim qismiga aylanmoqda, balki biznes loyihalarning rivojlanishida hal qiluvchi omil vazifasini ham o'tamoqda. Internet tarmog'i kompaniyalarga o'z biznesini yuritish va rivojlantirishda katta yordam berish bilan bu jarayonlarda asosiy rol o'yamoqda,

shuningdek, u barcha uchun tengi yo'q aloqa vositasi hamdir. Internet virtual axborot makoni bo'lib, bu makon millionlab web-saytlardan iborat. Siz ham o'z saytingizni yaratib, ushbu makonning bir qismiga aylanishingiz mumkin. Buning uchun professional yoki tajribali dasturchi bo'lishingiz yoki g'oyangizni amalga oshirish uchun dizayner, dasturchi mutaxassislar jamoasini yollashingiz shart emas, balki oddiygina CMSdan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lsangiz kifoya.

Kalit so'zlar. CMS , kompyuter, sayt , CMS- CONTENT MANAGEMENT SYSTEMS , KONTENTNING BOSHQARUV TIZIMLARI, BITRIX-SAYTNI BOSHQARISH TIZIMI, WEB SAYT-INGLIZCHA WEBSITE:WEB-“TO'R"VA SITE –“JOY”

Hozirgi vaqtida inson hayotiga kompyuter jadal kirib kelmoqda. Kompyuter ish yuritishni osonlashtiradi, yangi xujjalalar va xar xil matnlarni tez va sifatlari tayyorlash va taxlil qilish, telefon aloqa orqali axborotlar bilan almashish, murakkab xisob kitoblarni tez bajarish va ishlab chiqarish jarayonini osonlashtiradi. Yaqin kelajakda Kompyutersiz xayotimizni tasavvur qilib bulmaydi. SHuning uchun xar bir kishiga tushunarli bulgan kichik xajmdagi bilimlar juda kerak bo'ladi.

Oxirgi o'n yillikda zamonaviy saytlar oddiy saytlarga nisbatan ancha ilgarilab ketdi. Zamonaviy saytlar bejirim dizayn va puxta o'ylangan reklama usullaridan tashqari, takrorlash qiyin bo'lgan qat'iy funksiyalarni o'z ichiga olgan sahifalar to'plamidan iborat. Shu sababli, aksariyat foydalanuvchilar turli funksiyalarga ega zamonaviy saytni "nol"dan yozishdan ko'ra, ommalashgan CMS platformalardan foydalanishni ma'qul ko'radi. CMS imkoniyatlaridan foydalanishni o'rganib olganingizdan keyin, nafaqat o'zingiz uchun, balki buyurtma asosida ham sayt yaratishingiz va mavjud loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali

daromad topishingiz mumkin. E'tibor bering, CMS platformsida faoliyat yuritadigan mutaxassislarga bugungi kunda mehnat bozorida talab katta! CMS "Content Management System" deb yoyib yoziladi, ya'ni kontentni boshqarish tizimi yoki saytni boshqarish tizimi. Bu saytni tez yaratish , Bitrix (Saytni Boshqarish Tizimi) ishini soddalashtirish uchun xizmat qiladi. Birinchi: Saytni boshqarish tizimi buyurtmachiga saytni mustaqil expluatatsiya qilishda, ya'ni

bizning mutaxassis bilan emas, balki o'zingizning kompaniya xizmatchingiz (menedjer, kotib, marketolog) bilan saytdagi ixtiyoriy ma'lumotni va uning strukturasini o'zgartirishingizga imkon beradi. Agar siz saytingiz marketingli uskuna va undagi har kungi ma'lumotida kompaniyangizning oxirgi marketingli aksiyalari aks etishini xoxlasangiz u holda CMS ni sizning saytingizga qo'llanishi shart: va yana. Bu – saytingizni rivojlantirish yoki modernizatsiyalash ishlarida o'ylanmay qilingan harakatlar yoki shunchaki xatolardan asraydi.

Ikkinchi: Saytni boshqarish tizimi yordamida saytni rivojlanishi sezilarli soddalashadi va jonlanadi. Saytda yangi bo'lim yaratish, ixtiyoriy sahifada reklama bloklarini, ichki bannerlarni yoki tovarlarning maxsus takliflarini joylashtirishni buyurtlachi mustaqil va daqiqalar bilan o'lchanadigan vaqt mobaynida bajarishi mumkin. Bundan tashqari, buyurtmachi mustaqil , bizning yordamimizsiz, CMS yordamida saytni yangi interfaol bo'limlarini yaratishi (masalan, forum) yoki u yoki bu sahifalarni parol bilan yopib va ularga faqat tanlangan foydalanuvchilargagina kirishga imkon berish mumkin.

Uchinchi: Bizning saytni boshqarish tizimimiz (CMS, Bitrix) sizning saytingiz asosida yotuvchi bo'lgan, boshqa proyektarda ko'p marotaba o'rnatilgani (3500 martadan ko'proq), uchun u Saytingizni uni exsplatatsiya qilish jarayonida dasturiy xatolardan asrashiga kafolat beradi.



CMS – bu Content Management System dan olingan kengaytma, u so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “Sayt kontentini Boshqarish tizimi” yoki “Saytni Boshqarish Tizimi” larni anglatadi. Ba’zida CMS ni saytning “Harakatlantiruvchisi” deb atashadi. CMS – bu dinamik ma’lumotli web-sahifalarni ishlab chiqarish va ta’minalashga imkon beruvchi dasturiy ta’minotdir. Har xil CMS har xil murakkablikdagi saytlarni proyektlashga imkon beradi. Internet magazinlardan to informasion portallargacha, hammasidan ham, CMS axborotli va kontentli saytlarni yaratish uchun mos keladi. CMS ning ikkita asosiy turi bor:

1. Internetda ishlovchi va joylashuvchi cms.

2. Kompyuterga o‘rnatilgan va sayt bilan avtomatik yoki fayllarni yangilash interfeysi orqali ulangan cms. CMS ning sayt bilan integratsiyasidan keyin , kompaniyangizning xizmatchisi sayt tarkibi va strukturasini boshqarishlari, yangiliklarni chop qilishlari, matnlarni tahrir qilishlari va grafikani joylashtirishlari , katalogdagagi mahsulotni uzgartirishlari va mahsulotlarni qo‘sishchlari yangi sahifalarni , bo‘limlarni yaratishlari va ko‘pgina boshqa ishlarni bajarishlari mumkin. CMS asosida qurilgan dinamik saytlarning ustunligi dizaynning axborotli to‘ldirishdan ajratilganida bu xujjat aylanmasini, biznes jarayonlarni shaxsiylashtirish maxanizmlarini avtomatlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, CMS sayt tarkibini oson, sodda va tez boshqarishga imkon beradi. Bu

CMS dan foydalanishning iqtisodiy foydasi sezilarli darajada bo‘lishini ta’minalaydi.

CMS ning maqsad va vazifalari – mijoz tomonidan ma’lumot vagrafikalarini bsohqrish, to‘ldirish va tahrir qilish. Soddarоq qilib aytganda, bu tizim – sizga bo‘limlarni o‘zgartirish va to‘ldirish, sayt tarkibini tahrir qilish, sayt grafika va dizaynnini o‘zgartirishga imkon beradi. CMS siz bunday saytni boshqarish masalalari qimmat turuvchi dasturchilar aralashishmasa hal qilinmaydi.

CMS sayt kontentni boshqarish tizimi web – saytlarni yaratish va ta’minalash narxini pasaytiradi, shuningdek materiallarni yangilash tezligini oshiradi, ya’ni sayt xo‘jaynida material paydo bo‘lganidan to saytda chop etilganigacha ketgan vaqt CMS ni sharofati bilan minimal bo‘ladi. Buning ustiga CMS da ma’lumotlarni hop etishga tayyorlash jarayoni juda ham oddiy. CMS kontenti boshqarish tizimining shubhasiz ijobiy tomoni shundaki, saytni boshqarish va taminlash narxi pasayadi. Bu web – master oylik, maoshiga hujjatlarni izlashga ikkilanish va hatoliklarni oldini olishga ketgan yo‘qotishlarning pasayishi, sheriklar va mijozlar bilan bog‘lanish tezligining ortishi hisobiga yuz beradi. Sizga loyihani ta’minalash va rivojlantirish uchun mutaxassis yollashingizga to‘g‘ri kelmaydi.

CMS yordamida siz saytga joylashtirilgan ma’lumotlarning hajmi sayt narxiga ta’sir qilmasligiga guvoh bo‘lasiz. CMS kontentni boshqarish tizimi sizga saytda ihtiroyi hajmdagi ma’lumotlarni joylashtirishga imkon beradi. Odatda CMS ga asoslangan sayt sahifalari butunligicha saqlanmaydi, balki ularga murojaat qilishda juda tez shakllanadi, bu sahifalarni yuklashdagi tezlikni oshirishga imkon beradi, chunki sahifa shabloni (dizaynerlik rasmiy lashtirish) faqat bir marta yukланади va keyinchalik har bir yangi sahifa so‘rovida foydalanuvchi kompyuteridan ochilaveradi. Saytni boshqarish tizimida odatda keshlashtirish mexanizmi amalga oshiriladi, bu qurilmalarga tushadigan yuklamalarni kamaytirishga imkon beradi va ishlashning va saytning kiritish qobiliyatining tezligi oshishiga imkon beradi. Bu ishlар ma’lumotlar bazasi va statik materiallarga so‘rov natijalarini saqlash evaziga sodir bo‘ladi. Odatda CMS tizimini saytning kompaniya ishlab chiqaruvchisi o‘rnatishini taklif qilishadi. Bu ancha to‘g‘ri variant chunki tizim avval boshidanoq sizning saytingizga joylashib, moslashib ketadi. Shuningdek, CMS tizimlari qo‘sishcha funksiyalarni taklif etadi va oxir oqibat saytda forum, mehmon kitobi, savollar va javoblar va hokazolarni joylashtirishga imkon beradi.

CMS ning tekinlari ham mavjud, ular sayt tarkibini boshqarish uchun yetarlicha katta imkoniyatlarni namoyish qiladi. Tekin CMS lar ko‘p foydalanuvchilarga ega, ular tekin kontentni boshqarish tizimi yordamida saytni boshqarish muammolarini hal qilishga yordam beradi. Tekin CMS larga katta miqdordagi kengaytma va qo‘sishchalar mavjud, ular saytni boshqarish jarayonini ancha qulay va funksional qilishga imkon beradi. Ammo tekin CMS larning salbiy tomoni rasmiy texnik qo‘llab quvvatlashning yo‘qligi va sayt tarkibini boshqarish tizimida kritik xatolarni to‘g‘rilash, tezligining paytligidadir.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Горнаков С. Г. Осваиваем популярные системы управления сайтом (CMS). — М.: ДМК Пресс, 2009, 336 с.
2. Выбираем систему управления контентом для небольшого предприятия. ФИТ НГУ. — Elashkin Research, 2004, 29 с.
3. Электронная образовательная среда Moodle. Инструкция пользователя. — ВГУИЭС, 2015. 34 стр.
4. Евгений Заплетин. Фриланс на upwork. — М, 2019, 408 стр.
5. Мария Налобина. Фриланс для начинающих. Практика. — Staff-online, 2019, 76 стр.
6. <https://www.wordpress.com> — CMS yaratuvchi Wordpress saytining manzili
7. <https://www.wordpress.org> — Wordpress CMSning rasmiy manzili



PSIXOLOGIYA HAQIDA TUSHUNCHА — FANNING PREDMETI, TARMOQLARI, VAZIFALARI

Ilhomjon Teshaboyev Foziljonovich

Farg‘она viloyati, Oltiariq tumani
Xalq ta’lim bo‘limi metodist psixologи

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiya haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ruh, ong, psixika, psixologiya, faoliyat, amaliy psixologiya.

Psixologiya (qad.yunon ψυχή — «ruh, qalb, ong, xarakter» va λόγος — «ta’limot») — odam va odamlardan iborat guruhlarning psixikasi va psixik faoliyatining funktsiyasi, rivojlanishi va yuzaga kelishi qonuniyatlarini o‘rganadigan fan. Psixologiya tushunchasi murakkab bo‘lib, u o‘zida gumanitar va tabiiy fanlar yondashuvlarini birlashtiradi.

Psixologiya fani quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: **Fundamental psixologiya** — ruhiy faoliyatning qonunlari, dalillar va mexanizmlarni aniqlaydi; **Amaliy psixologiya** — fundamental psixologiya ma’lumotlariga tayanib o‘rganadi; **Amaliyotli psixologiya** — psixologik bilimlarni amaliyotda qo‘llash bilan shug‘ullanadi. Psixologiya tibbiyotning ruhiy buzilishlarni aniqlash va davolash bilan shug‘ullanadigan psixiatriya va ruhiyat orqali organizmga terapevtik ta’sir o‘tkazish yordamida kishilarni emotsional, shaxsiy va ijtimoiy tabiatli muammolardan xalos etish bilan shug‘ullanadigan psixoterapiya bo‘limi bilan chambarchas bog‘langan. Psixologiya fanining predmeti tarix davomida va turli xil psixologiya yo‘nalishlari nuqtai nazaridan turlicha tushuniladi. Zamonaviy psixologiya uchun psixologiya predmetini izlash hali ham dolzarbligicha qolmoqda. **Psixologiya fanining ob‘yekti** — turli ruhiy fenomen tashuvchilarning jamlanmasi bo‘lib, ularning asosiyлari xulq-atvor, faoliyat, katta va kichik ijtimoiy guruhlardagi odamlar o‘rtasidagi munosabatlari hisoblanadi. Psixologiyaning o‘rni ikki xil an'analar bilan bog‘liq. Birinchisi, tabiiy fan intizomi bo‘lish, ikkinchisi kundalik psixologiya o‘rnini egallash istagi. V.V.Petuxov va V V. Stolining ta’kidlashicha, har ikkala maqsad ham erishib bo‘lmaydi. Kundalik psixologiya bilan taqqoslaganda, ilmiy psixologiya psixik hayotni o‘rganish uchun kontseptual va metodik apparatiga ega maxsus intizomni ifodalaydi. Shu bilan birga, psixologiya uning o‘rganish ob‘yekti o‘z holatlarini ichki aks ettirishga qodirligi dalili bilan bog‘liq xususiyatlarga ham ega. Ilmiy va kundalik psixologiya bir-biridan tubdan farq qiladi, biroq o‘zaro bog‘liqligini saqlab qolgan holda. Psixologiya tabiiy va gumanitar fanlar bilan ham bog‘liqlikka ega. Psixologiya va tabiiy fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik insonning biologik tabiatiga asoslangan. Biroq insonning o‘ziga xos xususiyati yana shundaki, u ijtimoiy mavjudot bo‘lib, uning psixik fenomenlari ko‘p jihatdan ijtimoiy shartlar bilan belgilanadi. Shu sababli bu fan gumanitar fanlar bilan ham bog‘liq. Psixologiyaning o‘ziga xos xususiyati — bu ob‘yekt va sub‘yektning mos kelishi, ya’ni o‘rganish instrumenti sifatida refleksiyadan foydalanish talabi.

PSIXOLOGIYA VA ZAMONAVIY FANLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Psixologiya massalalari uzoq vaqt davomida falsafa doirasida ko‘rib chiqilgan. Faqt XIX asrning o‘rtalarida psixologiya mustaqil fanga aylandi. Ammo falsafadan ajralib chiqgan bo‘lsada, u bilan yaqin bog‘liqligi saqlanib qolgan. Hozirgi vaqtida falsafa bilan birgalikda o‘rganilayotgan ilmiy muammolar mavjud. Ushbu muammolarga shaxs tushunchalari, hayot maqsadlari, mafkura, siyosiy qarashlar, axloqiy qadriyatlar va boshqalar kiradi. Psixologiya gipotezalarni tekshirish uchun eksperimental usullardan foydalanadi. Biroq, eksperiment usullar bilan hal etilmaydigan masalalar ham mavjud. Bunday hollarda psixologlar falsafaga murojaat qilishlari mumkin. Falsafiy-psixologik muammolar orasida inson ongingin mohiyati va kelib chiqishi, inson fikrlashining yuksak shakllari tabiat, jamiyatning insonga va insonning jamiyatdagi ta’siri kabilar mavjud. Psixologiya bizga har sohada har jabhada kerak.



SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA RIVOYATLAR.

To'layeva Oydin Rizoyevna
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman
XTB ga qarashli 42-umumta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: O'rta ta'lim maktablarida o'qish fanini o'qitishda rivoyatlarni mavzusini axborot texnologiyalari asosida o'rganishning ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish.O'quvchilar ongida rivoyatlarni axborot texnologiyalari orqali tarkib toptirish va rivoyatlar haqida ko'nikma va malakalarini hosil qilish yo'llarini tahlil qilishdir.

Kalit so'zlar. Rivoyat , g'oyaviy mazmun, tarixiy rivoyatlar , topnomiv rivoyatlar .

Rivoyat (arab. hikoya qilmoq) — voqe va hodisalarini, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya; folklor janri. Hajmi qisqa, 2 yoki 3 epizoddan tashkil topadi, an'anaviy uslubiy shaklga ega bo'lmaydi. Odatda, oddiy bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og'izdanog'izga o'tish jarayonida erkin talkin qilinadi. Rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog'liq hodisalar yotadi. G'oyaviy mazmuniga ko'ra, tarixiy rivoyatlar hamda topnomiv rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning ideal me'yordi tashviq etilib, muayyan faktlar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temur, Sulton Mahmud va boshqa hayoti bilan bog'liq voqe va hodisalar asosida ham yaratilgan. Topnomiv rivoyatlarda shahar, qishloq, qo'rg'on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Xotimasida.odatda, hikoyadan maqsad ta'kidlanadi va muayyan fakt izoxlanadi (Mas, "To'rabe xonim maqbarasi", "Anda jon qildi", "Odinajonim", "Qo'ng'irot" va boshqalar). R.lar bizgacha ko'proq og'zaki, qisman yozma shaklda yetib kelgan. Vosifiynij "Badoye" ulvaqoye", Xondamirning "Makorim ulaxloq" va boshqa asarlarda R.larning qad. namunalari keltirilgan. O'zbekistonda juda ko'p R.lar yozib olingan va ular xalqtarixi hamda madaniyestetik qarashlarini o'rganishda muhim manbadir

SHARQ RIVOYATLARI

Bir shogird ustoziga shikoyat qildi:

— Falon kishi meni ko'rolmaydi — hasadning zo'ridan tars yorilib ketay deydi.

Ustozi bunga javoban dedi:

HASAD VA G'LYBAT. Bir shogird ustoziga shikoyat qildi:

— Falon kishi meni ko'rolmaydi — hasadning zo'ridan tars yorilib ketay deydi.

Ustozi bunga javoban dedi:

— Xo'sh, hasad-ku yomon ekan, lekin kim senga g'iybat yaxshi deb aytdi?! Boshqalarni yomonlagan kishi seni ham birovga yaxshi demaydi

Ibratli rivoyatlar. Anushervon bir kuni ov bahonasida aylanib yurar ekan, yong'oq ekayotgan keksa bir cholni ko'rib qolibdi.

— Hoy, otaxon, nima qilayapsiz? — degan ekan, chol: — Yong'oq ekayapman, — deb javob beribdi. — Yong'oq kech hosilga kiradi. Shunday ekan, u qachon voyaga yetadi-yu, siz qachon uning mevasidan bahramand bo'lasiz?

BIR KUNDA UCH MARTA HOSIL BERGAN DARAXT. Anushervon bir kuni ov bahonasida aylanib yurar ekan, yong'oq ekayotgan keksa bir cholni ko'rib qolibdi.

— Hoy, otaxon, nima qilayapsiz? — degan ekan, chol:

— Yong'oq ekayapman, — deb javob beribdi. — Yong'oq kech hosilga kiradi. Shunday ekan, u qachon voyaga yetadi-yu, siz qachon uning mevasidan bahramand bo'lasiz?

— Men bu daraxtlarni o'zim uchun emas, orqamda qolayotganlar uchun ekayapman. Chunki boshqalar ekkagini biz yeganimiz kabi, biz ekkan daraxtdan ham boshqalar bahramand bo'lishadi.

Cholning javobidan nihoyatda ta'sirlangan Anusher-von unga ming tanga in'om qilibdi.

— Siz menga mehnatingning samarasini ko'rasanmi-yo'qmi degan edingiz, — debdi shunda qariya lutf qilib.

— Ko'rib turganingiz kabi, hech kimning daraxti menikichalik tez hosil bermagan.



Anushervon uning topqirligidan xursand boiib, yana ming tanga beribdi.

— Boshqalaming daraxti bir yilda bir marta hosil bersa, podshohi olamning nazari sharofati bilan mening daraxtim ikki marta hosil berdi, — debdi bunga javoban chol.

Cholning donoligiga qoyil qolgan Anushervon yana ming tanga ehson qilibdi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Sharq rivoyatlari Ergash Ochilov. *Filologiya Fanlari Nomzodi*
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Rivoyat>



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA IJTIMOIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSİYANING O‘RNI

Turapova E’tibor Abdumutalovna
Kuziboyeva Nargiza Xaydaraliyevna
Namangan viloyati Mingbuloq tumani
12-umumta’lim maktabi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar

Annotatsiya: Maqolada Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishda Motivatsiyalarning ahamiyati hamda Motivatsiyaning ta’lim tizimidagi o‘rni xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: boshlang‘ich ta’lim, ijtimoiy faollik, motiv, motivatsiya.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridan boshlab ta’lim tizimi bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, mazkur jarayon ishtirokchilarining moddiy va ma’naviy turmush sharoitini yaxshilash, ta’limga turli yangi innovatsion texnologiyalarni olib kirish va bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishiga bo‘lgan talab va e’tibor ortib bormoqda.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida motivlashtirish ularda ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati, insonparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, xalqi va millatiga munosib farzand bo‘lib shakllanishga, sadoqat va e’tiqod, irodaviylik, erkinlik va bag‘rikenglik, rostgo‘ylik kabi qadriyatlarni e’zozlashga o‘rgatish kabi tushunchalarni o‘zlashtirish va ularda mazkur tushunchalarni o‘rganish uchun qiziqishlarni vujudga keltiruvchi ijobjiy motivlarni shakllantirish muhim sanalib, ular o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga va rivojlanirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, *motiv o‘zi nima? Motiv deganda nimani tushunish mumkin? Ijtimoiy faollikni shakllantirishda qaysi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi?* Motiv tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. **A.Maslou** motivni ehtiyoj, qiziqish bilan bog‘lasa, **A.N.Leontev** motivni ehtiyojlarni qanoatlantirishga xizmat qiladi va inson faoliyatini yo‘naltiradigan va uni qo‘zg‘atadigan obyekтивlik deb qaraydi. **L.I.Bojovichesa**, motivni nafaqat tashqi obyekтив omillar, balki tasavvurlar, g‘oyalilar, his-tuyg‘ular, bir so‘z bilan aytganda, ichki subyekтив omillar ko‘rinishi deya ta’rif beradi.

Shuningdek, bir guruh olimlar Dj.Gilford, B.R.Xilgard, K.Obuxovskiy, A.Levitskiy, P.I.Ivanovlar motivni faollikni boshlovchi va uni qo‘llab-quvvatlab turuvchi omil, shaxsni muayyan bir xatti-harakatga undovchi, zaruratni his qilinishi, u ichimizda maqsadni qo‘yishga qo‘zg‘atadi va xatti-harakatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni qabul qilishga olib keladi, deb ta’kidlaydi.

Demak, motiv psixologik adabiyotlarda insonni ma’lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga undaydigan, yo‘naltirilgan harakat yoki qo‘zg‘atadigan kuch-quvvat deb keltirilgan.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga tayyorlashda motivlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularda ijtimoiy faollikning shakllanishi va rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, mazkur jarayonlarning muvaffaqiyati o‘quv faoliyatining natijaviyligini ifodalaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga tayyorlashga ta’sir ko‘rsatuvchi motivlarni o‘rganish o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, bunday motivlarni o‘quv motivlari deb ham aytish o‘rinlidir. O‘quv faoliyatları har xil bo‘lishi mumkin, ammo asosiy motiv bo‘lib (maxsus) o‘rganishga qiziqishi hisoblanadi. O‘quv faoliyatining asosiy vazifasi o‘quvchining ilmiy nazariyalari asosida mustaqil fikr yuritilgan o‘rgatish hisoblanadi.

Ta’lim olishga, kasb-hunar egallashga undovechi motivlar haqida fikr yuritilganda **Abu Rayhon Beruniyning** ilm olish haqidagi fikrlarini keltirish asosida o‘quvchilarda intilish va qiziqish, ehtiyoj kabi o‘quv motivlarining ijobjiy ta’sir ko‘rsatishini aytish mumkin.

Mutafakkirning ta’kidlashicha, bilim olish va insoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o‘quvchida intilish va qiziqish bo‘lishi kerak. Ilm olishning muhim yo‘llaridan biri kishi o‘zini hammaga do‘st tutishi va yaxshilik qila bilish darajasiga yetkazishdan boshlanadi. U ilm olish



uchun dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Shuningdek, ta'lim bilan tarbiyaning bir butunligini ko'rsatadi, faqat shu birlikka amal qilgan shogirdlarga kamolat sari intiladi, deb ishontiradi.

A.Fayzullayev motivlashtirish jarayonini besh bosqichga bo'lib o'rganadi. **Birinchi bosqich** – xatti-harakatlarning vujudga kelishi va anglanishi. Xatti-harakatlarning to'liq anglanishi harakat qanday vosita ta'sirida amalga oshganligini anglash hamda mazkur harakatni amalga oshirishning usullari va natijalarini oldindan aniqlash orqali belgilanadi;

Ikkinci bosqich – motivlarning qabul qilinishi bo'lib, bu xatti-harakatlarni ichki motivlar asosida amalga oshirishni ifodalaydi. Bu bosqichda inson o'zining axloqiy prinsiplari va qadriyatlarni tahlil qilib, vujudga kelgan ehtiyoj, mayl va uning uchun qanchalar muhimligi va ularni qondirish zaruriyati to'g'risida qaror qabul qiladi.

Uchinchi bosqich – bu motivning amalga oshirilish bosqichi bo'lib, mazkur jarayonda vaziyatlarga ko'ra motivlarning mazmuni o'zgarishi mumkin.

To'rtinchi bosqich – motivning mustahkamlanish bosqichi bo'lib, bu bosqich natijasida motiv xarakter belgisiga aylanadi.

Beshinchi bosqich – xatti-harakatlarning faollashuv jarayoni bo'lib, mazkur jarayonda mustahkamlangan motiv (xarakter)ning ma'lum bir xususiyati angangan yoki anglanmagan holda maydonga chiqadi.

Xulosa qilib aytganimizda, o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy faoliy ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb va zifalardan hisoblanadi. o'quvchilarning faoliigi rivojlanishining muvaffaqiyati ularning har birining individual fazilatlariga va shaxsiy intilishlari motivatsiyasiga bog'liq.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: 2003
2. Haydarov F.I. O'quv faoliyati motivatsiyasi: Monografiya. – T.: Fan, 2005.
3. Файзуллаев А.А. Мотивационная саморегуляция личности. – Т.: Фан, 1987.



BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSALARIDA FOYDALANILADIGAN DIDAKTIK O‘YINLAR

Xaitmuamedova Gulbahor Toxirovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida foydalanan metodlar haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, o‘quvchi, o‘qituvchi, ijodiylik, ijodiylik, savodxonlik, ona tili, didaktik o‘yin, metodika, nutq.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslari orqali o‘quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Ona tili mashg‘ulotlarida asosiy e’tibor o‘quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, fikrini sharoitga mos ravishda ifodalay olish ko‘nikmalarini kengaytirishga qaratilmog‘i zarur.

Yosh avlodni tarbiyalashda o‘z ona tilida aniq, tushunarli, ta’sirchan, chiroyli so‘zlashga o‘rgatish masalasi asosiy o‘rinda turadi. O‘quvchilarni savodli, o‘z fikrini to‘g‘ri va erkin bayon qila oladigan, nutq madaniyatiga ega kishilar etib tarbiyalash vazifasi dastlab boshlang‘ich ta’lim bosqichida amalga oshiriladi. Nutqni yaxshi egallagan, o‘z tilining imkoniyatlaridan keragicha foydalana oladigan o‘quvchi, albatta, boshqa o‘quv predmetlarini ham ancha oson va to‘liq o‘zlashtiradi, ularda bilim va madaniyat bo‘lgan intilish kuchayadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limining samaradorligi o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlash, ona tili fanining amaliy yo‘nalishlaridan kelib chiqib, ta’lim jarayonida ko‘proq o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga undovchi, o‘quv topshiriqlarini ishga solish, o‘quvchilarda bilish – o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish singarilar bilan bog‘liq.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini turli noan’anaviy shakllarda tashkil etish pedagogik texnologiyaning eng muhim talabi hisoblanadi. Ana shu noan’anaviy dars shakllaridan biri “O‘rganilgan va o‘rganilayotgan bilimlar olamiga sayohat” darslaridir. O‘quvchilar sinfda o‘tirib, bilimlar olamiga sayohat qiladilar. O‘qituvchi dars jarayonida berilgan o‘quv topshiriqlarini to‘rt-besh bekatga ajratadi. Muayyan bir bekatdagi o‘quv qiyinchiliklarini yenggan o‘quvchi o‘qituvchi rahbarligida ikkinchi bekatga yo‘l oladi. Barcha o‘quv qiyinchiliklarini yenggan o‘quvchilar bilimlar mamlakatini zabit etadilar.

Dars samaradorligini oshirishning yana bir shakli o‘yin darslaridir. Bu darslarda har bir topshiriq o‘yin tarzida tashkil etiladi. Unli va undosh tovushlar ustida ishlayotganda “Tovushdosh so‘zlarini top”, “Berilgan kataklarni tez to‘ldir”, “Tovush juftlari bilan farqlanuvchi so‘zlar ro‘yhatini davom ettir” kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin. Tilga olinayotgan topshiriqlarning musobaqa tarzida tashkil etilishi uni qiziqarli o‘yinga aylantiradi va g‘oliblarni aniqlab, ularni rag‘batlantirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Quyida ana shu o‘yinlardan namunalar keltiramiz.

Sirli kataklarni to‘ldir o‘yini – o‘quvchilarga kataklarni to‘ldirib, tovushdosh so‘zlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, toy so‘zini soy so‘zigacha davom ettirish talab etiladi.

Namuna:

toy	Loy	moy	voy	oy	choy	yoy	Soy
-----	-----	-----	-----	----	------	-----	-----

O‘quvchilarga quyidagi tarzda topshiriqlar beriladi. O‘quvchilar kataklarni to‘ldirishlari talab etiladi.

bosh							Yosh
pol							Hol

Ikkala bo‘g‘inida ham bir xil unli bo‘lgan so‘zlar ro‘yhatini tuzing o‘yini – bu o‘yinda birinchi bo‘g‘inida ham ikkinchi bo‘g‘inida ham bir xil unli qo‘llaniladigan so‘zлarni (masalan, tutun, burun, burgut, uzun, mushuk, uchun, tushum) topish va so‘zlar ro‘yhatini muayyan miqdorga yetkazish topshiriladi. Belgilangan miqdorda eng ko‘p so‘z topa olgan o‘quvchilar



o‘yin g‘olibi sanaladi.

Domino o‘yini – mazkur o‘yinda bir o‘quvchi so‘z aytadi, shu so‘z qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlanadigan so‘zini boshqa o‘quvchi aytishi kerak. Bu o‘yin shu tarzda davom ettiriladi. Namuna: ishla –adolatli – insofli – ilmli – inson – nargiz – zafar - rostgo‘y – yilnomalari – anor - rubob.

Nazoratchi harf o‘yini – o‘qituvchi belgilangan harf asosida o‘quvchilarga so‘z yozishni taklif etadi. Masalan, o‘qituvchi shu harfning so‘z boshida kelishiga namunalar yozing deb aytadi. Ishni bajarish uchun aniq 2-3 daqiqa vaqt belgilanadi. O‘quvchilar quyidagicha yozadilar: shodlik, shahar, shovqin, shalola, sharshara, sharafl, shar, sher. Belgilangan vaqtida ko‘p so‘z yozgan o‘quvchi birinchilikni oladi.

Doirada berilgan harflar asosida so‘z tuz o‘yini – o‘quvchilarga doira ichida 8 ta harf taqdim etiladi. O‘quvchilar shu harflar ishtirokida so‘zlar hosil qiladilar. Belgilangan vaqtida ko‘p so‘z hosil qilgan o‘quvchilar yoki guruhi g‘olib sanaladi. Bu o‘yinni, ayniqsa, unli va undosh tovushlarni o‘rgangandan keyin o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar o‘quvchilar e’tiboriga a, u, z, f, s, t harflari berilgan bo‘lsa, ular shu harflarni qatnashtirib, bu, tuz, aft, saf, bas kabi so‘zlar hosil qiladilar.

Talaffuzda adashmang o‘yini – o‘qituvchi o‘quvchilarga x va h yoki f –p tovushlari ishtirok etuvchi so‘zlardan aytishni topshiradi. O‘quvchilar ikki guruhgaga bo‘linib, topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Shunda kim so‘zni noto‘g‘ri aytса, o‘yindan chiqadi. Mavzu asosida so‘zni aytgan o‘quvchi shu so‘zni taxtada yozadi va imlosi bilan taqqoslanadi. Berilgan vaqtida eng ko‘p to‘g‘ri so‘z aytgan o‘quvchiga, sinfda o‘quvchilar o‘z qo‘llari bilan yasagan o‘yinchoqlardan sovg‘a sifatida beriladi.

Namuna:

Shoh – davlat boshlig‘i.

Shox – novda, daraxtning shoxi.

Xil-xil – saralangan, tanlangan.

Hil-hil – ezilib pishgan.

Uhladi – hafa bo‘ldi, “uh” tortdi.

Uxladi – uxlamoq, dam olmoq.

Hol – ahvol so‘radi.

Xol – inson tanasida bo‘ladigan xol.

Egizaklar o‘yini – o‘quvchilarga so‘zlar tarkibida qo‘s sh undoshlar kelishini izohlashgach, ularni egizaklarga o‘xshatish mumkinmi deyiladi. Bolalar uchun bu esda qoladigan, o‘yin bo‘la oladi. Agar bir xil (mm, ll, ss) undosh bo‘lsa, Hasan – Husan, ikki xil undosh qo‘s sh kelsa (nsh, st, nd), Hasan – Zuxra kabi obrazli o‘xshatishlar aytilsa, o‘quvchilar darrov shunday so‘zlarni izlashadi va o‘yin qiziqarli bo‘ladi.

Masalan: Hamma, amma, pilla, tilla, issiq, hassa.

Ganch, do‘sht, go‘sht, qand, vaqt, baxt.

Egizaklarni joylashtiring.

1.ga.....(ganch) 2. Ga.....ar(gavhar)

ti.....(tinch) se.....ar(sehrgar)

ga.....(gancha) ra.....(rahm)

shu.....(shuncha) za.....(zargar)

Yuqoridagi o‘yinlarni boshlang‘ich sinf ona tili darslarida qo‘llasak, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlesh ko‘nikmalari shakllanadi va darsni o‘zlashtirish samaradaorligi yanada oshishiga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.M.Ernazarova, A.Bobomurodova. boshlang‘ich sinf ona tili darslarini tashkil etish metodlari va dars shakllari. Navoiy, 2007.

2. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. T.: 1992.



ТАЪЛИМДА ГУРУХ БЎЛИБ ИШЛАШНИНГ ҚУЛАЙЛИК ВА ҚИЙИНЧИЛИК ТОМОНЛАРИ

Иномова Мафтуна Улуғбековна

Чирчиқ шаҳар 15- ихтисослаштирилган давлат
умумтаълим мактаби инглиз тили фани ўқитувчisi
телефон: +998(97) 703 40 66
inomovamaftunaulugbekovna@gmail.com

Аннотация: Таълимда гурух бўлиб ишлаш методи хозирги замонавий ўқитиш тизимида кенг кўлланилмоқда. Ушбу методнинг таълим самарадорлигида ўз ўрни бўлиб, ўқувчига берилаётган билим ва кўникмани ўзлаштириш жараёнини осонлаштиради. Шу билан бирга, гурух бўлиб ишлаш методини турли фан кесимларида фойдаланиш ўзига хос қулайликлар ва қийинчиликларни юзага келтиради. Қуйида манашу томонлар кўриб чиқилди.

Калит сўзлар: Таълим, метод, интерактив, ўқитувчи, ўқувчи, гурух, мулоҳаза, жараён, ёндошув.

Жамиятнинг ҳар бир соҳаси жадал ривожланаётган давлатимизда таълим соҳасида ҳам сўнги беш йилликда катта ислоҳатлар бўлмоқда. Бу ўзгаришларнинг барчаси ўқитувчи фолиятининг енгиллашишига, меҳнат самарадорлигини ортишига ва албатта уларнинг моддий ва маънавий рағбатлантиришга қаратилмоқда. Бундай кўмак ва шароит ўқитувчининг касбий маҳоратини, фаолият самарадорлигини оширмоқда.

Дарс жараёнини қизиқарли ташкил этишда, ўзлаштириш самарадорлигини оширишда интерактив методларнинг салмоқли ўрни бор. Интерактив методлар ўқувчининг бир-бирига таъсирини оширади. Шунингдек кенг фикрлашга ва мулоҳаза юритишга ундаиди. Интерактив таълимда ўқитувчи ва ўқувчи, ўқувчилар ва компьютер ўртасида мулоқат бўлади. Бу таълим аниқ ва олдиндан айтса бўладиган мақсадни назарда тутади. Бунда ўқувчилар ўзларининг муваффақиятли таълим олаётганларини, ақлий теранликларини сезадилар. Интерактив методлар кўлланилганда ўқитиш касбий фаолият ва ҳаётий вазиятлар билан боғланади.

Таълимни гуруҳларга бўлиб ўқитиш методи интерактив методлардан бири бўлиб, таълимга бўлган янгича ёндошувлар таъсирида ривожланди. Ўзаро фаоллик, таъсир қилиш, сухбат олиб бориш қобилятини билдиради. Бунда ўқувчи жамоа билан ишлашни, боўқалар фикрини эшлиши, алтернатив фикрларни ўйлаб кўриши, тўғри хуласа чиқариши ўрганади. Шу билан бирга, мураккаб муаммоларни таҳлил қилиш асосида ҳал қилиш ва бошқа кишилар билан муомала қўникмаларини эгаллади.

Гурух бўлиб ишлаш барча фанлар учун бирдек самара бермайди. Чет тилларини ўқитишида синф ўқувчиларининг икки гурухга бўлинини ушбу метод учун фулайликни оширса, тўлиқ синф ўтирадиган, шахсий ёндашув ва мулоҳаза талаб қилинадиган математика, физика каби аниқ фанларда ноқулайликлар юзага келтиради. Энг аввало тўлиқ синфни гуруҳларга ажратиш вақт тақсимотини бузади. Бундай гуруҳларда ишлаш кўп вақт талаб қиласи. Шахсий ёндошув сўралганда турли фикрлар ўқувчини чалғитиб юборади. Жамоа аъзоларининг турли жавобларидан танлангани нотўғри бўлиб, аммо гуруҳнинг бирор аъзосида танланмаган тўғри жавоб борлиги ўқувчининг кайфиятига таъсир қилмай қолмайди. Унда гурух билан ишлаш ва унинг бир қисмига айланиш иштиёқи пастлаб қолади.

Хуласа қилиб айтганда, ҳар бир дарсга ёндошув ўқитувчидан катта маҳорат ва маъсулит талаб қиласи. Жараёнда педагог мавзудан келиб чиқиб, ўқувчиларни сони ва билим даражаларини хисобга олиб гурух бўлиб ишлаш методидан фойдаланишининг самарали йўлларини кашф қилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Таълим тўғрисидаги қонун – 2020.09.23
2. Хошимов. Ў, Ёқубов. И “Методикадан мустақил ишлар” Т:1992
3. Мавлонова. Р ва бошқалар “Педагогика” Т: 2001
4. Тольскова. М “Современная методика обучения иностранным языкам” М: 2000
5. www.ziyonet.



УМУМТАЛЬИМ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Курбанова Одина Ахмадалиевна

Тошкент вилояти Бекобод шаҳар 14-умумий

Ўрта таълим мактаби география ва

Иқтисодий билим асослари фани ўқитувчиси

e-mail: odinaqurbanova@mail.uz

Телефон: +998942175154

Аннотация: мақолада умумий ўрта таълим ўқувчиларини экологик маданиятини ривожлантириш масалалари география фани мисолида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: умумий ўрта таълим, география, табиат, экология, экологик маданият.

Ўрта умумий таълим мактаблари, таълим жараёнларида экология машғулотлари машқлари хар қанча самарали ташкил этилмасин ўқувчиларнинг экологик машғулотлар билан шуғулланишга бўлган эҳтиёжларини қондира олмайди. Чунки, у ҳафтада бор-йўғи икки соат ўқитилади, холос. Қолган пайтларда машғулотлар мустақил тарзда амалга оширилади. Шунинг учун ҳар экология машғулотлари машқлари билан мустақил шуғулланиш ўзига хос тизимини география фани мисолида ташкил этиш лозим.

Мустақил экологик машғулотлар билан шуғулланиш тизимида оиласидаги экологик машқларни, мактабда дарсдан ташқари экологик тайёргарликни, спорт тўгараклари ва секциялардаги машғулотларни, эрталабки бадан-тарбия машқларини, соғломлаштирувчи машғулотларни, спорт маҳорати машқларини, харакатли ўйинлар, спорт мусобақалари, туристик саёҳатлар, байрамларни киритиш мумкин.

Педагогик ва методик адабиётларда уларнинг аҳамияти, ташкил этилиш тартиби, шартшароити ҳақида кўплаб фикрлар билдирилган. Биз изланишларимизда мустақил экология машғулотлари машқлари билан шуғулланишга қўйиладиган талаблар, экологияни ўқувчиларга мўлжалланган машқларнинг мазмуни ва бажариш тартиби, умумий экологик ривожланишга таъсири, шуғулланувчининг ўзини-ўзи назорат қилиши ҳамда айrim методик тавсия ва кўрсатмаларни ишлаб чиқишга ҳаракат қилдик.

Экология машғулотлари инсон организмини чиниқтиради, кучлилик ва чаққонликка ўргатади. Соғлиқни мустаҳкамлайди, гавдани тўғри шаклланишини таъминлади. Экология машғулотлари орқали экологик маҳорат таркиб топади ва энг юксак натижаларни кўлга киритишга ижобий таъсир кўрсатади. Инсон умрини узайтиради ва соғ-саломат ҳаёт кечиришга замин ҳозирлайди.

Шулар қатори инсоннинг ақлий, ахлоқий ва меҳнат тарбияларига ҳам кучли таъсир этади. Бир сўз билан айтганда, шахсдаги комиллик белгиларининг ортиб боришига таъсир килади. Факат экология машғулотлари тор маънодаги экология машғулотлари дарслари шаклида эмас, кенг маънода, ҳар қандай экологик тадбирларда иштирок этиш шаклида тасаввур қилиш зарур бўлади. Чунки мураккаб экологик машқларни бажаришда, спорт ўйинлари ва мусобақалarda иштирок этишда энг ноёб инсоний фазилатлар номоён бўлади. Оддий ҳолатда ўйлаб ҳам кўрилмайдиган фазилатлар ўйин ва мусобақалар жараёнида осонлик билан амалга оширилади.

Экологик тарбия ўқувчиларда хулқ-атвор, одоб, юриш-туриш нормаларининг таркиб тошиши ва уларга амал қилишни таъминлади. Халқ орасида ахлоқлилик ва ахлоқсизлик деган тушунчалар мавжуд бўлиб, улар қўпчилик ҳолларда тарбияланганлик ва тарбиясизлик деган маъноларини англатади. Шундай экан, ахлоқий тарбия инсон маънавий қиёфасини асосини ташкил этади. Маънавий қиёфа ташки қиёфа билан уйғун бўлгандағина киши ҳар томонлама тарбия кўрган деб тан олинади.

Экологик ва ахлоқий тарбиясининг узвий боғлиқлиги ҳақида мулоҳаза юритганда, улуг рус ёзувчиси А.П.Чеховнинг «Инсонда ҳамма нарса гўзал бўлиши керак...», деган қоидасини эсламасдан бўлмайди. Аввало инсоннинг ташки қиёфаси, гавда тузилиши, юриш-туриши экологик қоидаларига амал қилгандағина атрофдагиларнинг эътиборини ўзига тортади, мулоқотга киришишга, дўистлашишга эҳтиёж туғилади.

Инсон маънавий томонидан ҳар гўзал бўлмоғи даркор. Хулқ -атвори, фахм-фаросати, диди шаклланган кишиларни, хушфеъл ва очиқкўнгил, мард ва адолатли кишиларни маъна-



вий гўзал деб ҳисобланади. Бу каби инсоний сифатларнинг кўплари экологик машғулотлар билан шуғулланган, спорт соҳасида улкан ютуқларга эришган кишиларда мавжуд бўлади.

Экология машғулотларинг мақсад ва вазифаларини бажариш маълум натижаларни кўлга киритиш билан якун топади. Кимдир соғломлаштирувчи, кимдир чақонлик ва куч тўплаш учун, яна кимдир умумий экологик чиниқиши учун, бошқа тоифа кишилар спорт маҳорати ҳосил қилиш учун экологик машғулотлар билан шуғулланадилар.

Экология машғулотларининг энг юқори даражаси маҳорат ва унинг маданиятга айланган кўринишида акс этади. Маҳоратнинг сайқаллашуви санъат ҳисобланади. Жуда кўплаб ўз ишининг усталари, моҳир мураббийлар ўз касбий фазилатларини санъат даражасига кўхарганлар.

Экология машғулотларинг экологик тарбия билан узвий боғлиқлиги хақида мулоҳаза юритганда от спортидаги гўзаллик тўғрисида гапирмаслик адолатсизлик бўлар эди. Ота-бо боларимиз минг йиллардан бери отга меҳр кўйиб, ҳайвонот дунёси вакилларидан ўзларига содик дўст топганлар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конститутсияси.–Т.: Ўзбекистон, 1992. –35

2. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. ПФ-4947. 7.02.2017

3. “Соғлом бола йили Давлат дастури” Тошкент 2014 йил

4. Рафиқов А.Табиатда экологик мувозанат. Т. “Ўқитувчи” 1997. 7-124 бетлар.



БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Туробова Зубайда Тухтамуродовна
Самарқанд вилояти Булунғур тумани
19-мактаб бошлангич синф ўқитувчиси
e-mail: kabrorxonovna@mail.ru
Телефон: +998993124191

Аннотация: мақолада бошлангич синф ўқувчилариниг экологик маданиятини шаклланганлик ҳолати ва уни ривожлантириш масалалари кенг ўрин олган.

Калит сўзлар: бошлангич синф, таълим, тарбия, табиатшунослик, атрофимиздаги олам, экология, экологик маданият, ахлоқ, комил инсон, тажриба.

Экология юонча сўз бўлиб, «ойкос» - уй, «логос» - фан, яъни «табиат уйи» бўлмиш борликда яшаётган тирик жонзотларни ўрганувчи илм соҳаси деганидир. Юртимиз худудида бундан қарийб уч минг йил олдин зардуштийлик талимоти шакллангани, унинг бош китоби «Авесто» деб аталишини билсанг керак. Бу таълимотда ерни, сувни асрар, ҳайвонларга озор етказмаслик ҳақида кўпгина ибратли гаплар айтилган. Чунки авлодларимиз ўша замонларда ёк сен билан биз яшаб турган бу олам ягона вужуддан иборат экани, борди-ю унинг бирор аъзосига зиён етказилса, бутун тана, яъни жамийки борликда салбий ўзгаришлар юз беришини яхши тасавур этганлар. Чиқинди ва ахлатларни дуч келган жойга ташламаслик, сувни ва ҳавони булғамаслик каби ҳалқимиз орасида бугунги кунгача сақланиб келаётган одатларнинг илдизлари ҳам ана шу замонларга бориб боғланади. Ёки ўша даврларда шаклланган Наврўз байрамида табиат билан уйғун яшаш, ер, сув ва осмонга, барча тирик жонзотларга меҳр билан қараш асосий ўрин тутади. Ёки ота-боболаримизнинг муқаддас дини бўлмиш исломда табиатдаги ҳар бир ҳодиса Оллоҳнинг мўжизаси сифатида эътироф этилиши ва уларга нисбатан авайлаб муносабатда бўлишғояси тарғиб қилинади. Буларнинг барчаси ҳалқимизнинг ҳамма замонларда ҳам ўзига хос экологик тафаккур ва маданият соҳиби бўлганини кўрсатади. Экологик маданият бир нечта омиллар асосида шаклланади. Табиатга муҳаббат, табиат ҳақидаги билим ва тасаввурлар, экологик тарбия, анъана ва қадриятлар, экологик тарғибот шулар жумласидандир. Табиатга меҳр-муҳаббат ҳар бир инсоннинг қонида мавжуд. Чунки инсон табиат фарзанди. У она қорнидаёт табиат неъматларидан баҳраманд бўлади - нафас олади, озиқланади. Туғилганидан сўнг табиатга янада яқинроқ бўлади — гулларни, капалакларни, қуёш шуъласини кўриб қувонади, сувда яйраб чўмилади, тупроқда чопқиллаб ўйнайди, ранглардан завқ олади ва ҳоказо. Табиатга меҳр инсон кўнглида раҳм-шафқат ва ҳайрат туйғуларини тарбиялайди. Лекин дунёда шундай одамлар борки, уларга меҳр бегона. Табиат ҳақидаги билимлар бизда болаликданоқ шакллана бошлайди. Ҳаммамиз ёшлиқда турли ҳайвонлар шаклидаги ўйинчоқларни ўйнаганмиз, ота-онамиз билан бирга ҳайвонот боғига борганимиз, табиат бағрига саёҳат қилганимиз, турли гул ва кўчатлар ўтқазганимиз. Шу тариқа ҳайвонлар ва ўсимликлар ҳақида турлича тасавурларимизни кенгайтиради. Экологик тарбия оиласдан бошланади. Ота-онамиз уйни, ҳовлини тоза тутиш, вақтида шамоллатиш, гул ва дараҳтларни, уй ҳайвонларини парваришилашга ўргатади. Турли неъматларни истеъмол қилганимизда улар табиат инъоми эканини айтиб, шундай ризқ-насибани бергани учун Яратганга шуқроналар айтади. Шунингдек, ҳар фаслга мос меҳнат анъаналари ва қадриятларимиз ҳам экологик маданиятимизни шакллантиришга хизмат қилади. Масалан, куз келиши билан дараҳтларни бутаб, ҳазонларни тўплаб, ток, анжир каби иссиқсевар ўсимликларни ўраб қўянимиз. Қишлоғидан зарур мева ва сабзавотларни ғамлаймиз. Баҳор келиши билан ялпиз, исмалоқ, жағ-жағ каби барра кўкатлардан дармон сифатида турли пишириклар тайёрланади. Кўкламни кутлаб, Наврўз байрами ўтказилади. Ариқ-зовурлар, томорқалар тозаланади ва ҳоказо. Бугунги кунда оммавий ахборот воситалари орқали, маҳалла, маънавият, табиатни ҳимоя қилиш фаоллари томонидан олиб бориладиган тарғибот ва тушунтириш



ишлари ҳам экологик маданиятни оширишда муҳим ўрин тутмоқда.

Буларнинг барчаси ҳайвонлар, ўсимликлар — бутун табиат биз мансуб бўлган тириклик оламининг бир бўлаги, улар ҳам яшашга, ўзидан зурриёд қолдиришга ҳақли эканини англашга хизмат қиласди. Ана шу ҳақиқат экологик маданиятнинг моҳиятини ташкил этади. Шу ҳақиқатни англаган инсон табиатни асраршга интилади, ёвуз кимсаларнинг унинг устидан зўравонлик килишига йўл кўймаслик учун курашади. Булар асосан ҳозирги кунда мавжуд бўлган экологик хавфсизлик классификатсиясида бўлган: умумсайёравий, минтақавий, миллий, локал экологик хавфсизликлар мамлакатимиз худудини ҳам четлаб ўтмади. Бу хавфлардан озон қатлами муаммолари, яъни емирилиши, иқлиминг ўзгариши, чўлланиш, тоза ичимлик суви танқислиги, Орол денгизи муаммоси, ҳайвонот ва ўсимлик дунёси турларининг қисқариб бориши, ўсимлик дунёсининг ноқонуний кесилиб бориши, ер деградатсияси, сув ресурслари танқислиги, атмосфера ифлосланиши шулар жумласидандир. Экологик фожиаларнинг бу даражадаги жадаллашиб боришида экологик онг ва экологик маданият алоҳида ўрин тутади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конститутсияси.—Т.: Ўзбекистон, 1992. –35
2. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. ПФ-4947. 7.02.2017
3. “Соғлом бола йили Давлат дастури” Тошкент 2014 йил
4. Абдуллаев А.А. Экология машғулотлари воситалари. Экология қўлланма. Фарғона, 1999. 55-94 бетлар



KO'RGAZMALILIK METODI VA UNDAN FOYDALANISH

Farmonova Gulbahor Raxmonovna

Qiziltepa tumani 38-maktab

Geografiya fani o'qituvchisi

Telefon: +998 91 452 24 96

munismalikam@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars davomida keng qo'llaniladigan metodlardan biri ko'rgazma metodi haqida ma'lumot berilgan. Bu metodning qo'llashning foydali jihatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ko'rgazmalilik, diqqat, bilim, malaka va ko'nikma, idrok qilish, , qiziqish.

Ko'rgazmalilik aniq bilan abstrakt orasidagi bog'liqni ta'minlaydi, abstrakt xayolning rivojlanishiga kuchli ta'sir qiladi, uning yutug'i bo'lib xizmat qiladi. Ko'rgazmali qurollarning sifati bilan ularni qo'llash darajasi o'qitish bosqichlarida har xil bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali qurollar ko'pincha, to'liqroq, yuqori sinflarda akademik litsey va maktablarda unga qaraganda kamroq, zaruriy joyida qo'llaniladi. Tadqiqotlar, ta'lim tajribalari ko'rgazmali qurollarning, ulardan foydalanishning foydasi ham zarari ham bor ekanligini ko'rsatadi. Ko'rgazmalilik metodidan foydalanishda haddan tashqari o'zingiz va noto'g'ri qo'llash, bilimlarni egallashda qiyinchilikka keltirib chiqaradi, hamda o'quvchilarning diqqatini ahamiyatsiz masalalarga ag'daradi. Shu sababli o'qituvchining barcha vaqtida, hamma mavzuda, har bir darsda ko'rgazmali qurollarni qo'llash shart emas.

Ko'rgazmali qurollardan foydalanish, texnik qurollardan foydalanish, o'qitishning sifatini yaxshilash, natijali o'qitish quroli, vositasi ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Ko'rgazmali qurollar va vositalarning turlari quyidagicha:

1.Tarbiyaviy ko'rgazmali qurollar-ob'ektlar, narsalar, jarayonlar, o'simliklar, hayvonlar va boshqalar;

2.Ta'sirli ko'rgazmali qurollar-chizmalar, suratlar, jadvallar, kino, diagramma va boshqalar;

3.Hajmli ko'rgazmali qurollar-geometrik shakllar, figuralar va boshqalar;

4. Shartli va timsolli ko'rgazmali qurollar-karta, globus va boshqalar;

5. Har xil modellar, maxsus priborlar, asboblar va boshqalardan, shu kabi turlarga bo'linadi.

Bu kabi ko'rgazmali qurollarning turlaridan har bir fanga o'ziga xos tarzda, fan va mavzuga moslab ularni tanlash, ulardan bilim berish jarayonida foydalanish bolalarning bilimini boyitishda katta foya beradi.

Bu usullardan to'g'ri foydalanish ta'lim samaradorliginining oshishida, bolalarda bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishga yordam beradi. Ko'rgazmali qurollar bilim berish jarayonining barcha bosqichlarida: uy vazifasini so'raganda, ya'ni mavzu tushuntirganda, o'quvchilarning mustaqil ishlarni tashkillashtirganda, malaka va ko'nikmalarni shakllantirganda, uy vazifani bajarishda, bilimlarni amaliyotga tadbiq qilganda, o'quvchilar bilimini reyting baholash va tekshirilganda qo'llaniladi. Ko'rgazmali o'qitish metodidan foydalanishda to'liq boshchilikka olish o'quvchilarning bilimni mazmunli o'zlashtirishda, mustahkam xotirada saqlashni bilish kuchlari bilan bilash jadalligini rivojlantirishga, nazariyot bilan amaliyotni bog'lashga xamda tushunarli o'qitishga katta yordam beradi.

Ko'rgazmalilik metodi idrok qilishni osonlashtirishi va nazariy bilimlarni hayot, amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Bu metoddan ta'lim jarayonida foydalanish o'r ganilayotgan materialga, hodisa va mavzuga o'quvchilarning diqqatini qaratib, qiziqishini oshiradi, bilimlarni mukammalroq egallashga yordam beradi. Ko'rgazmali qurollarning afzalligi shundaki, uni dars o'tishning barcha shakllari, uslublarida qo'llash mumkin. Ayrim mavzularni esa umuman namoyish qilinadigan materiallarsiz, ko'rgazmali qurollarsiz o'tib bo'lmaydi.

Darsni tashkil etishda ko'rgazmali qurollar muhim o'r in tutadi. Didaktikaning asosiy printsiplaridan biri darsning ko'rgazmaliliginini ta'minlash.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. «Pedagogika». N.G'aybullaev, R.Yodgorov, R.Mamatqulova, Q.Toshmuratova. Toshkent. 2000 yil

2. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. – T.: 2008.



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADA O'QITISH METODLARI

Jumayeva Gulchiroy Utkirovna

Qiziltepa tumani 42- maktab

tarix fani o'qituvchisi

Telefon: +998 91 452 24 96

munismalikam@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiyada o'qitish metodlari haqida aytib o'tilgan. Dars davomida qo'llash usullari bo'yicha fikrlar aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, loyihalashtirish, bilim, qobiliyat, tajriba, tizim.

Pedagogik texnologiyani an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi.

Loyihalashtirish faoliyati o'quvchi-talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir. Loyihalash metodi – o'qitishning tashkillashtirilishi bo'lib, o'quvchi-talabalar rejalashtirish va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko'rinishida bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo'llash natijasida loyiha (proyekt) ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi. Og'zaki-ko'rgazmali yondashuv. U an'anaviy bo'lib, asosan o'qituvchining axborot berishi, o'quvchi-talabalarning bilimini qabul qilishi, toplashi va xotirasida saqlashi bilan belgilanadi. «Bilim» tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Bunday bilimlar, ularni qo'llay olish ko'nikmalari (imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga bergan javobiga qarab) orqali tekshirib ko'rildi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Ta'limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim va tajribani mustaqil ravishda o'zlashtirish, harakatning yangi zamonaviy usullarini topish va tashabbus ko'rsatishni nazarda tutadi.

Izlanuvchan yondashuv. Bu yondashuvdagi maqsad talabalarda muammoni hal etish, yangi, oxirigacha tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, ta'sir etishning yangi yo'llarini yaratish va idrokni rivojlantirishdan iboratdir. Izlanuvchan ta'lim andozasining ta'lim mazmuni, tabiat va jamiyat bilan o'zaro ta'siri shaxsni tadqiqotchilik yo'liga boshlash, uning jadal ijodiy faoliyati xarakteri bilan bog'liq.

Tizimli yondashuv – ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega bo'lib, pedagogikada keng qo'llaniladi. «Tizimli yondashuv» tushunchasi ko'pincha «tizimli metod», «tizimli tahlil usuli» tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Chunki tizimli tahlil usullari ham obyektni yaxlit tizim sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv tuzilish vazifasiga ko'ra bajariladigan tahliliga juda yaqin.

Texnologik yondashuv. Texnologiya tushunchasi – tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanadigan usul va metodlar majmui; shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. Texnologianing o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalgalashiriladi.

O'quv jarayonini o'zaro uzviy bog'liq bosqichlar va amallarga ajratishni va bo'lishni; ta'lidan ko'zlangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, bosqichma-bosqich amalgalashirishni; loyihalashtirilgan ish va amallarning barchasini bir xil tarzda bajarishni nazarda tutadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. «Pedagogika». R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xolikberdiev. Toshkent. «O'qituvchi». 2002
2. «Pedagogika». Q.Qosnazarov, A.Pazilov, A.Tilegenov. Nukus. 2010



ADABIYOT DARSLARIDA «6X6X6» METODINI QO'LLASH

Muxiddinova Gulmexra Nosirovna

Qiziltepa tumani 17-maktab

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: +998 91 452 24 96

munismalikam@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida «6x6x6» metodini qo'llash haqida aytib o'tilgan. Dars davomida qo'llash usullari bo'yicha fikrlar aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy ta'lif, mahorat, ziyraklik, nazariya, faoliik, baholash va mukofotlash.

Adabiy ta'lif jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan metodlaming yana biri «6x6x6» metodidir. Adabiy asarlar tahlili jarayonida mazkur metoddan foydalanishda adabiyot o'qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlami oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi O'quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo'linadi. Jami 36 o'quvchi ishtirok etadi. O'qituvchi istasa guruhlarga muayyan nomlar berishi ham mumkin. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi.

O'quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo'yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o'qituvchi guruhlaming a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rGANADILAR, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ulaming o'zlari tomonidan tahlil qilinadi.

Sinfdag'i o'quvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi: 1. Guruhlar o'qituvchi tomonidan belgilanadi. 2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o'quvchi va guruh a'zolari oldindan aniq belgilab olinadi. 3. Har bir guruhga zehnli va qobiliyatli hamda bo'shroq o'zlashtiradigan o'quvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi. 4. Guruh rahbari va a'zolariga vazifalari tushuntiriladi. 5. Har bir guruh doira shaklida o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi shart. 6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariga e'tibor berib boriladi.

Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi. Bunday guruhlarni tashkil etishdan avval o'quvchilaming shu ishni bajarishga bilim va malakalari yetarligiga ishonch hosil qilish; guruhlarga aniq vo'l-vo'riqlar ko'rsatish; vazifaning bajarilishi uchun yetarli vaqt ajratish; o'z vazifasini vaqtadan ilgari bajargan guruhning bandligini ta'minlashga tayyor bo'lish; qo'yiladigan masala murakkab bo'lganda guruh a'zolari sonini kengaytirish; baholash va mukofotlash jarayonining guruh a'zolariga ta'siriga tayyorlanish; kuchli guruhlami mukofotlash; bajarilgan ish natijasini qanday topshirish yo'llarini ma'lum qilish; jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

Bu metoddan foydalilaniganda o'quvchilar guruhini bunday aralash tarzda tashkil etishning salbiy tomonlari ham mayjud. Ma'lumki, aralash guruhlarda ko'proq kuchli o'quvchilar ishlaydi. O'rtacha va bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar ulaming oldida «yumilib» qoladilar. Chunki vaqt tig'iz bo'ladi. Demak, hamma o'quvchilar darsda faol qatnashmaydilar.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Q. HUSANBOYEVA, R. NIYOZMETOVA ADABIYOTO 'QITISH METODIKASI,
Toshkent-2018

2. <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.



RUS TILI FANINI O'QITISH USULLARI

Ro'ziqulova Munisa Akmal qizi
Qiziltepa tumani 15-maktab rus tili o'qituvchisi
Telefon: +998 91 452 24 96
munismalikam@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus tilini o'qitishdagi muhim jihatlar aytib o'tilgan. O'quvchi faoliyatini boshqarish va o'qitish usullari bo'yicha fikrlar aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy tabiat, izchillik, sistematiklik, nazariya, faollik, didaktika.

O'qitish tamoyillari barcha o'quv fanlari uchun qo'llaniladigan (umumiy didaktik) va rus tilini o'qitishda bevosita qo'llaniladiganlarga bo'linadi. Quyidagi tamoyillar umumiy didaktikdir: ilmiy tabiat, izchillik, sistematiklik, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik, bo'limlarning o'zaro bog'liqligi, ong, faollik, kirish imkoniyati, o'quvchilarga individual yondoshish, kuch, aniqlik.

Ilmiy xarakter printsipi - o'qitishda yolg'on va eskirgan lingvistik tushunchalardan foydalananish emas, shu bilan birga etarlicha nufuzli va asosli ma'lumotlardan foydalananish. Maktab kursiga nisbatan bu vazifa juda qiyin bo'lib tuyuladi: zamonaviy tilshunoslik fanida deyarli har bir masala bo'yicha turli xil qarashlar keltirilgan. Morfemika va sintaksis nazariyasi va terminologiyasidagi tafovutlar ayniqsa ajoyib. Shu nuqtai nazardan, ushu aniq bosqichda o'qitish uchun nufuzli lingvistik tushunchalardan qaysi biri eng samarali ekanligini anglash va izchillik va sistematiklik printsipiga rioya qilish nihoyatda muhimdir.

Fan mavzularida qarama-qarshiliklar bo'lmashligi, qurilishning qat'iy mantig'iga ega bo'lishi va nafaqat til bo'yicha qo'shimcha bilimlarni, balki mustahkam ko'nikmalarga ega bo'lish uchun aniq ishlashi kerak. Kursning turli bo'limlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik printsipi shundan iboratki, har bir keyingi bo'lim talabalarni oldingi bo'limlarni o'rganishda olgan barcha bilimlar zaxirasiga asoslanadi. Davomiylik va istiqbollar juda muhim printsiplar bo'lib, ular hozirda metodologiyada muhokama qilinmoqda. Shubhasiz, keyingi bo'limlar oldingilariga asoslanishi kerak. Biroq, bu erda quyidagilarni yodda tutish kerak: maktab o'quv dasturi keyingi universitet dasturi uchun yetarli asos bo'lishi kerak. Yagona (va hamma uchun majburiy) o'quv majmuasi mayjud bo'lganda, rus tili maktab va universitet kurslari nazariyasi va terminologiyasi o'rtasidagi farq haqida juda ko'p tanqidlar bo'lgan, ammo yangi vaziyatda barqaror maktab kursi haqiqatan ham universitetgacha bo'lishni mo'ljallamagan: bu vazifani gimnaziya, litsey, ya'ni mavzuni chuqur o'rganadigan makteblar. Uzluksizlik, shuningdek, qo'shimcha ma'lumotni davom ettirishga imkon beradigan, kurs mazmunini ma'lum darajada egallashga kafolatlangan yutuq bilan bog'liq. Rivojlantiruvchi ta'lim, vijdonlilik va o'qitishda faollik tamoyillari talabalarining faol mustaqil ishlarini nazarda tutadi. O'quvchilarning faolligi o'rganilayotgan materialning yangiligi bilan ta'minlanadi (takrorlash bilan ham nazariy materialni kamida minimal darajada kengaytirish, tahlil qilish uchun yanada murakkab til misollarini kiritish maqsadga muvofiqdir); pastki sinflarda faollashtirish vazifalarni bajarish tartibi (jamoalar o'rtasidagi raqobat, lingvistik mavzulardagi krossvordlar) bilan ham, o'qiladigan va yaratilgan matnlarning (masalan, F. Krivinning lingvistik mavzulardagi ertaklari) bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan o'yin lahzalarini kiritish orqali osonlashadi. Katta sinflarda referat yozish va himoya qilish bo'yicha o'z-o'zini ijodiy ishlar faollikkni oshirishga yordam beradi.

Diqqatga sazovor bo'lish tamoyili quyidagicha: material murakkablik bilan, birinchi navbatda, talabalarining yoshi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ammo juda oddiy material, ayniqsa mashqlarda keltirilgan material o'rganilayotgan narsalarga bo'lgan qiziqishni kamaytirishi mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Федоренко Л. П. Принципы обучения русскому языку. М., 1973. 44
2. Дидактика средней школы: Некоторые проблемы современной лингвистики. / Ред. М. Н. Скаткин. М., 1989.
3. Хупорской А. В. Современная дидактика. СПб., 2001.



AKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Sharipova Shaxnoza Muhiddinovna

Qiziltepa tumani 15-maktab
informatika fani o'qituvchisi
Telefon: +998 91 452 24 96
munismalikam@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada AKT dan foydalanishning afzalliklari aytib o'tilgan. Dars mobaynida o'quvchini o'ziga jalb qilish hamda murakkab mavzularni tushuntirishda qo'llash tavsya qilingan.

Kalit so'zlar: Internet, kompyuter, texnologiya, qobiliyat, bilim, kasbiy o'sish.

Internet orqali turli xil materiallarni olish va maxsus disklardan foydalanish imkoniyati. Elektron darslikning multimedia tizimi dasturni tabiiy jarayonlar tovushi bilan to'ldirish, matnni diktorning ovozi bilan takrorlash, ish uchun zarur fon musiqasini yaratish, istalgan videofragmenni qo'shish, animatsiya bilan har qanday geografik jarayonni "jonlantirish" imkonini beradi, bu esa o'quvchilar uchun katta ko'rinish va qiziqishni ta'minlaydi;

Ishning xilma-xilligi, o'yin momentini kiritish imkoniyati tufayli kognitiv faollik va bilimlarni assimilyatsiya qilish motivatsiyasi ortishi: agar siz misollarni to'g'ri hal qilsangiz - rasmni oching, barcha harflarni to'g'ri kriting - siz ertak qahramonini maqsadga yaqinlashtirasiz. Kompyuter o'qituvchiga o'quvchi bilan birgalikda nafaqat hayoliy kuch bilan maktab idorasi devorlarini itaribgina qolmay, balki eng yangi texnologiyalar yordamida o'zingizni yorqin rang-barang olamga singdirishga imkon beradigan qiziqarli jarayonlardan bahramand bo'lish uchun yangi imkoniyatlar beradi. Bunday faoliyat bolalarda hissiy ko'tarilishni keltirib chiqaradi, hatto orqada qolgan o'quvchilar ham kompyuter bilan ishslashga tayyor.

Muntazam darsning kompyuter bilan birlashtirilishi o'qituvchiga o'z ishining bir qismini shaxsiy kompyuterga o'tkazib, o'quv jarayonini yanada qiziqarli, xilma-xil va shiddatli qilishiga imkon beradi. Xususan, ta'riflarni, teoremlarni va materialning boshqa muhim qismlarini yozish jarayoni tezlashadi, chunki o'qituvchi matnni bir necha marta takrorlashi shart emas (u uni ekranga chiqardi), o'quvchi o'qituvchidan aynan kerakli bo'lakni takrorlashini kutish shart emas.

bu o'qitish usuli o'qituvchilar uchun juda jozibali: bu ularga bolaning qobiliyatları va bilimlarini yaxshiroq baholashga, uni tushunishga yordam beradi, o'qitishning yangi, noan'anaviy shakllari va usullarini izlashga undaydi, uning kasbiy o'sishini va kompyuterni yanada mukammal o'zlashtirishni rag'batlantiradi.

darsda kompyuter testlari va diagnostika komplekslaridan foydalanish o'qituvchiga qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish darajasi to'g'risida ob'ektiv rasm olish va uni o'z vaqtida tuzatish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, aniq o'quvchi uchun topshiriqning qiyinlik darajasini tanlash mumkin

o'quvchilar tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish. Informatika bilan birlashtirilgan darslarda o'quvchilar kompyuter savodxonligini o'zlashtiradilar va turli mavzulardagi materiallar bilan ishslashda eng kuchli zamonaviy universal vositalardan biri - kompyuterdan foydalanishni o'rganadilar, uning yordamida tenglamalar echishadi, grafikalar, chizmalar tuzadilar, o'z ishlariga matnlar, rasmlar tayyorlaydilar. Bu o'quvchilar uchun o'zlarining ijodkorligini namoyon etish imkoniyati;



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ERTAK JANRINI O'QITISH USULLARI

Yunusaliyeva Gulchehra Arabboevna

Farg'onah shahar 27-maktab,

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

tel: 998905616961

e-mail: yunusaliyeva@inbox.uz

Annotatsiya: maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilariga ertak janrini o'qitish orqali ularda xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirish va axloqiy-ma'naviy dunyosini boyitishdan iborat.

Kalit so'zlar: o'qish darsi, ertak, adabiy ta'lif, estetik did.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'qishlari va xulq-odobolariga ko'proq e'tibor berish, ularning ta'lif-tarbiyasi bilan shug'ullanish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan har bir dars, ayniqsa, o'qish darslari juda muhim. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkillash va olib borish o'qituvchidan yuksak mahorat talab etadi. Chunki yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirib borish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat kabi tuyg'ularni tarbiyalash bugungi ta'lif-tarbiya masalasining dolzarb vazifasidir. Shu sababli umumta'lim maktablarida o'qish darslariga alohida e'tibor beriladi. O'qish darslarida asosan, darslikda adabiy matnlar bilan bir qatorda tarix, geografiya, odobnoma kabi fanlarga oid matnlar ham beriladi. Chunki o'quvchilarga adabiy matnlar mazmun-mohiyatini tushuntirishda tasavvurlarini, dunyoqarashlarini kengaytirish, so'z boyligini oshirish, yaxshini yomondan ajrata olish ko'nikmasini shakllantirish, ularning tuyg'ularini tarbiyalash zarur. Adabiy ta'lifda boshlang'ich sinf o'quvchilarining:

- a) bexato, ravon, ifodali o'qishlari;
- b) o'qiganlarini tushunish, tushunganlarini tushuntira olishi;
- v) ular asosida og'zaki nutqni o'stirish;
- g) yozma nutqni va savodxonlikni rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda, asosan, o'qilgan matnlardan didaktik xulosalar chiqarish muhim sanaladi. Sinf o'quvchilarining saviyasi, tayyorgarlik darajasiga ko'ra 3-4-sinflarda matnlarni didaktik tahliliga keng o'rinn berish mumkin, shuningdek, estetik tahlil unsurlarini ham kiritса bo'ladi. Bu sinflarda she'rler qofiyasini topish, qofiyaning she'r musiqiyligini ta'minlashdagi ahamiyatiga e'tibor berish, so'z o'yinlariga diqqat qaratish estetik tahlil chizgilarini deyish mumkin.

O'qish darsligida "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar" (2-sinf) rukni ostida berilgan ertaklarda ham didaktik tahlilga keng o'rinn berish lozim. Masalan, "Tansihatlik – tuman boylik", "Kenja o'g'il", "Eng yaxshi sovg'a", "Aqli bola", "Hakka bilan tulki" (o'zbek xalq ertaklari), "Tulki va xo'roz" (eron xalq ertagi), "Somon, cho'g' va loviya" (Aka-uka Grimmlar) kabi ertak qahramonlari orqali va ularning qilgan ishlari asosida ibratlari xulosalar chiqarishga o'rgatish zarur. Aslida, ertaklar xalq og'zaki ijodi janrlari hisoblanadi. Olim D.Quronovning fikricha, "Ertak – xalq og'zaki ijodidagi epik janr, cho'pchak. Ertak barcha xalqlar og'zaki ijodida qadimdan shakllangan va faol janrlardan sanaladi. Ertaklar, asosan, nasrda yaratilib, syujeti asosida sehrli-fantastik, sarguzasht yoki maishiy xarakterdagi voqealar yotadi, voqealar bayoni va talqinda ijodiy fantaziya, to'qima salmoqli o'rinn tutadi". [1:375] Ko'rindiki, xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertaklardir. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto turli yoshdagagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. [2:33]

